

Qutlug' kecha

Shaylanuvlar oxiriga yetdi-yu, qalam tebranishga tushib, ajabtovurdan-ajabtovur bu voqea, ko'hna rivoyatda qanday bashorat qilingan bo'lsa, xuddi o'shanday tarzda boshlandi...

Qaddingni ko'tar, Boychechak! Sovuqlarning qahrli basharasidan qo'rqma!

Sen har qanday izg'irinni yengishga qodirsan. Kuchingga astoydil ishonsang bas.

Qo'zg'al, Boychechak, qo'zg'al! Boshiga og'ir kun tushgan Navro'zoyni birgina sen qutqara olasan, sen!

Boychechak biri yomg'irlarnikidek pichirloq, biri epkinlarnikidek mayin, biri irmoqlarnikidek tortimli tovushlar qayoqdan kelayotganini bilolmay hayron edi. Balki, unib chiqishga intiq turgan o't-o'lanlarning tomirchalari yer ostida g'imirlab, o'tinchli shivirlashayotgandir. Balki, daraxtlarning qoqshol shoxlari bulduruqdan qaqshagan yosh xivichlar qismatidan xavotirlanib, ezgin iltijo qilishayotgandir. Yo bo'lmasa, tezroq kapalakka aylanib, chechakdan chechakka sakrab o'ynoqlashni orzulayotgan urug'chalar qarag'ay po'stlog'i qatidagi g'umaklarning ichida turib, yalinib-yolvorishyaptimikan?

Bu ovozlardan uyg'onib ketmaganida, Boychechak hali ham tinchgina tush ko'rib yotgan bo'larmidi. Juda shirin tush ko'rayotuvdi oppoqdan-oppoq ko'ylak, yashildan-yashil nimcha kiyib, boshiga moviydan-moviy ro'mol o'ragan, vujudidan kamalakrang yalinlar sachrab turgan mislsiz bir Go'zallik unga quloq yoyib yaqinlashayotgan emish. Yaqinlashayotgannish-u, в Ёњ Men Navro'zoyma, ismimni unutm. Taqdirimizga bizning birga bo'lishimiz bitilgan. Borliqni jonlantirib, barchaga rizq ulashish uchun biz bir-birimizni albatta topishimiz kerak в Ёќ, deb uqtirar emish...

Uvilloq tovush eshitilib, Boychechakning xayoli sochildi. Oldiniga, shamol yana ufurishni boshladi, deb o'yladi. Keyin ko'rib bilsa, terskay tomoni olachalpak qorli do'ngchani ustida pahlavon bir it yulduzlari miltilloq oydan-da charog'onroq chaqnatotgan osmonga suqlanganicha ulib turibdi.

Bu itning oti Oqbars bo'lib, tushunarsiz fe'l-atvori bilan chetdan juda qiziq ko'rinar. Bir qarasang, tilini chapanicha sangillatib olib, bekordan-bekorga chopayotgan, jo'shqinlanib irg'ishlayotgan, ochilib-sochilib yumalanayotgan. Yana bir qarasang, tevarakka o'ychan tikilgan, ko'zlari ma'yus.

Hozirgi turishda tug'yoni ichiga sig'mayotgan shoirga o'xshab ko'rinyapti samoga yoniqib-yoniqib termilmoqda, toshiqib-toshiqib nola qilmoqda. Agar, dunyodagi mushuklarning eng sullasi sanalgan Mallamosh bezrayganicha kelib, har galgidek jig'iga tegishni boshlamaganida, shu turishda ertalabgacha turavergan bo'larmidi.

Namuncha tomog'ing yirilgudek uliysan, Oqbaris? itning g'ashini qo'zitish uchunmi, uning otini buzib aytdi Mallamosh. Bizga yana uyqi yo'g'akan-da, a?

Vag'illoq tovushni eshitiboq, Oqbarsning birdan qovog'i uyilgan bo'lsa-da, tag'in bir muddat oydan ko'zini uzmay turdi. So'ng, mushukka noxush yuzlanib, jerkib berdi:

Hey, qanaqa hayvonsan o'zi? Qachon qarama, sal narsadan bahona topib, injiqlik qilganing-qilgan.

Uv-uvlab uxlatmaganingdan keyin, injiqlik qilaman-da, ko'zini chaqchaytirdi Mallamosh.

Kunduzlariyam o'n marta uxlab, o'n marta uyg'onganing yetmayaptimi? deb jahllandi Oqbars. Hech bo'lmasa, shu qutlug' kechada uxlamasang, tukung kamayib qolmas.

Mushukning to'satdan chehrasi ochildi:

Qanaqa qutlug' kechani aytyapsan, mulla Oqbaris? Birov tekinga yemish tarqatmoqchimi deyman? Bundan bexabar qolganimni qara-ya.

Oqbarsning battar qovog'i solinib: в Ёњ Kallang qursin seni, bu olamda ovqatdan boshqa narsalar ham borligini bilmasdan o'tib ketasan shekilli в Ёќ, deb irilladi.

Bugun qishning oxirgi kechasi edi. Odamlar bu kechani qadim-qadimdan Oytug'di deb kelishadi. Oytug'di onaning duosi tufayli kezargon bo'lib yaraladigan eng kechki, eng oxirgi Boychechak aynan shu tunda unib chiqadi. U boshqa sheriklaridan o'ta o'tkir, o'ta yoqimli is taratishi bilan ajralib turadi. Tomiri juda nozik bo'lgani uchun ozgina shabada tegsa ham tuproqdan ko'chib, u joydan bu joyga sakrab-sakrab uchishga tushadi, qarichma-qarich oldinga intilaveradi. Tushida ko'rgan sevgilisini izlab tinimsiz kezib yuraverishi bois, uni в Ёњ kezargon Boychechak в Ёќ deyishadi.

Aytishlaricha, bu tun tugab, Oy o'z o'rmini Kunga bo'shatib berayotgan erta tong chog'ida Boychechak bilan Navro'zoy nihoyat bir-birini topadi. Sharqona yangi yil ana shu yangi kundan boshlanadi. Necha-necha o'lkalar ko'rkam liboslarda bezanib, ne-ne ellar bayram dasturxonini tuzashga tutinadi. Ko'klam faslining birinchi tongini esa, odamlar Kuntug'di deb atab kelishgan.

Itidan bu gaplarni eshitib, mushukning hafsalasi pir bo'ldi:

Ikkita sho'ring qurg'ur bir-biri bilan uchrashsa uchrashibdi-da. Shuginani deb, o'pkangni chirmanda qilib turganingga o'laymi.

Navro'z bayrami nimaligini bilasanmi o'zing? deb o'qraydi Oqbars. He, qovoq!

O'zing qovoqsan! ko'zi kosasidan sitilgudek bo'lib gap qaytardi Mallamosh. Qovoq bo'lmaganingda, boshni behudaga qotirmasdan, jamiki esli-hushli jonivorlarga o'xshab, to'yib-to'yib uxlagan bo'larding, so'ng so'zining ohangini bir oz yumshatdi. Men senga aytсам, bu yorug' jahonda uyqudan mazaliroq narsa yo'q. Bir tasavvur qilgin-a, Oqbarisjon iliqqina kecha, qorning to'q, atrof jimjit. Mening uxlashim manavi pish-sh, pish-sh, pish-sh. Ha pish-sh, ha pish-sh. Sening uxlashing manavi qiq-qiq xr-r, qiq-qiq xr-r, av-av! Qiq-qiq xr-r, qiq-qiq xr-r, av-av! Shunaqa rohatdan kechib, qayoqdagi Boychechak-moychechaklarni gapirib o'tiribsan-a. O'l-e!

Tug'ilganingdan beri shunaqasan, afsusnamo bosh tebratdi Oqbars. Hovlidagi kovakdan yarim kun ko'z uzmay sichqon poylaysan-u, kovakning yonginasidagi chechakka biror marta qarab qo'yaysan. Hatto chechaklarning eng chiroylisi bo'lgan Boychechakni ham umringda ko'rmagansan. Agar ko'rganingda...

Oqbarsning gapi chala qoldi. Do'ngchadan pastga tikilganicha, bir zum tarrakdek qotib turdi. Pichadan keyin o'ziga kelib:

в Ёњ Ana u! Qara, qara, ko'ryapsanmi? Bu o'sha kezargon Boychechak! в Ёќ deya irg'ishlab yubordi.

Mallamosh it ko'rsatgan yoqqa o'girilib, yengil epkinda sapchib-sapchib uchib kelayotgan kulgichyuz chechakli giyohni ko'rdi. Turxatida biron-bir o'zgarish sezilmay, yana itga yuzlandi:

O'simlikshunos olim bo'lmasam ham bilaman, chechak degan yer yutkur bir joyda o'sguvchi edi. Bu daydi nimaga shataloq otib yuribdi?

Boya aytuvdim-ku, darrov esingdan chiqdimi? Navro'zoyni qidirib ketyapti u.

Oqbars do'ngchadan tushib, Boychechak sari yurdi. Yaqin borgach, qalbi to'lqinlanganidan nafas olishi tezlashib, chechakni avaylab hidladi, hushidan ketgudek bo'lib tebrandi. Tebranishi tiyilmasidan: в Ёњ Bu senmisan? Kezargon Boychechaksan, a? в Ёќ deb so'radi.

Ha, Boychechakman!

Adashmasam, Navro'zoyni izlab ketyapsan. To'g'rimi?

To'g'ri, qo'ng'iroqchanikidek jarangli sasda javob qildi Boychechak. Bilaman, Navro'zoy ikki ko'zi to'rt bo'lib meni kutib turibdi. Shu payt shuv-v etgan ovoz taralib, etlarga igna bo'lib sanchiluvchi sovuq havo to'zg'idi. Yashil yaproqlarida gulini shoshib yopib olgan Boychechakning qarshisida ajdarsifat qora tutun paydo bo'ldi. Dumining uchi o'rim-o'rim sochlardek yoyilib hilpirar edi.

Kutib turibdi deb xomtama bo'lma! deya guldiroqlanib so'zladi u. O'sha Navro'zoying hozir birovni kutadigan ahvolda emas.

Buni men kuch-qudratda tengi yo'q Ayozzoda aytyapman!

Oldilarida qartaygan Qishning toshbag'ir lashkarboshisi Ayozzoda turganini anglab yetgan Oqbars, qanchalar dovyurak bo'lmasin, bir lahza esankirab qoldi. Biroq, sarosimaga tushmadi, Boychechakni o'z gavadasi bilan devordek to'sib, uni izg'irinning muzsanchar ignalaridan himoya qilishga tirishdi.

Itning turishini ko'rib, Ayozzoda qah-qah ota boshladi. Kulgani sayin, sovuq battar kuchayib boraverdi, yalang'och butalardan tortib ulkan daraxtlarning tanasigacha chirsillab ketdi. Bunaqada suyaklari chatnab yorilishi mumkinligidan hayiqqan Mallamosh вЂњВoy, miyov-eyвЂќ deb qo'yib, o'zini qoqmochoq burganlar ichiga urdi.

Navro'zoyni notanish qallig'i

Ayozzoda yolg'on so'zlamagandi. Navro'zoy shu topda chindan ham behushlik holatiga tushib qolgan, na atrofda nimalar bo'layotganini sezar, na biron-bir shovqin uni bezovta qila olardi.

Navro'zoy ertalab ham tuppaa-tuzuk edi. Ko'ksaroyni fayzga chulg'ab, kun bo'yi xushchaqchaqlanib yurdi. Ariqchadagi suvlar bilan quvlashmahoq o'ynadi, tubidagi toshchalarni olib, qizaloqlarga to'ptosh ulashishni istayotgandek, yumaloq-yumaloqlarini saraladi, omborchasiga kirib, o't-o'lanlar, dov-daraxtlarning tanasini, yaproqlarini, gullarini bo'yab chiqish uchun turfa xil ranglar tanladi. Kechki payt yana maydonchaga qaytib chiqib, xilma-xil o'yinchoqlar shaklidagi bulutlarning suzishini tomosha qila boshlagan mahalda, bobosi uning yoniga keldi.

Bayramga tikkan kiyimlarini qachon kiyasan, qizim? deb so'radi. Qish bugun yarim kechadayoq senga taxtini bo'shatib berish tadorikiga kirishadi. Ertaga ilk saharda Bahorxonning timsoli bo'lib taxtga sen o'tirasan. Qolgan-qutgan qorlarni supurishga, yerlarni yomg'ir bilan sug'orishga, tabiatni bo'yashga tushasan. Borliq seni katta shodiyona bilan qarshi oladi.

Bobosining gaplarini eshitib, Navro'zoy entikib ketdi. Xonasiga kirib, oq ko'ylagini, yashil nimchasini, xirom maxsisini kiydi, moviy ro'molini o'radi, o'zini toshoynakka solib ko'rdi. Oldilaridan bir o'tib qo'yamasam bo'lmas deb, shu yasan-tusanda bobosining yoniga bordi, yangi kiyimlarini ko'z-ko'z qildi.

Hah ho'-o', judayam ochilib ketibsan-ku, qizginam, deya nevarasiga ko'zi to'ymay tikildi Kuntug'di ota. Seni shu turishda ko'rsa, Boychechakbek naq angrayib qoladi hali.

Navro'zoy ingichka qoshlarini chimirib, bobosiga savol nazari bilan boqdi:

Boychechak? Kim u?

Qallig'ing-da, bamaylixotir javob qildi Kuntug'di ota.

Voy, qanaqasiga qallig'im bo'larkan? taajjublandi Navro'zoy. Uni umrimda ko'rmaganman-ku, bobo.

Kuntug'di ota o'shanday xotirjamlik bilan: вЂњHali ko'rasan, yoqtirib ham qolasanвЂќ deb, deya tasalli bera boshlagan edi, nevarasi: вЂњYoqtirib qolishimni qayoqdan bilasiz?вЂќ deb battar hayratlandi.

Bobo bu gal ham pinagini buzmadi:

Bilaman-da. Chunki, rivoyatda shunday deb yozilgan. Boychechak ikkovning taqdiring bitta. Shunaqa ekan, bir narsa bahona bo'ladi-yu, sizlar uchrashasizlar. Ana o'shanda, Boychechak o'z-o'zidan ko'zingga issiq ko'rinib ketadi. Keyin undan ayrilgning kelmay qoladi.

Yetti yot begonadan-a?

Iye, Oytug'di opamning nevarasi nega begona bo'larkan?

Xonasiga qaytib borayotganida ham, borib, yana toshoynakning oldiga o'tirganida ham Navro'zoyni xayolida bir savol takrorlanaverdi: вЂњQanaqa ekan o'sha Boychechak?вЂќ

Boychechak ko'z o'ngida turli qiyofalarda gavalana boshladi. Shunisi qiziqki, barcha qiyofalar biri biridan yoqimtoy edi.

Navro'zoy sochlariga oro berayotganida, xonaning torgina tuynugidan shovullab shamol kirgandek bo'ldi. Shamol o'zi bilan birga bolachochalar uzoq-uzoqlarda kuylayotgan jo'shqindan-jo'shqin qo'shiqning sadosini ham olib kelgandi.

Boychechagim, Boychechak,

Atir xumli gulpechak.

Yashirib qo'ysin atrini,

Opqochmasdan O'rgimchak.

Boychechagim shaylansin,

Ko'chani kezib aylansin.

Kelinchaklar qand bersa,

Bag'riga kirib joylansin...

Elda Navro'zoy hali bilmagan bir udum bor bolalar boylam-boylam boychechaklarni mistovoqqa terib, qo'shiq aytganlaricha, azali xonadondan tashqari, mahalladagi har bir uyga kirib chiqishadi. Ayollar mistovoqdan bir boylam gul olib, o'rniga turshak, yong'oq, qand-qurs tashlayveradilar. вЂњBoychechakchivЂќlar topganini o'rtada taqsimlab yeyishadi.

Navro'zoyni bor ko'rgiliklari aynan shu palladan sovuqqina shamol tuynukdan shuv-v etib kirib kelishidan boshlandi. U o'z tanasida g'alati bir junjukishni his etayotganida, ajdarsimon qora tutun paydo bo'lib, ko'mirrang ko'zlarini unga lo'qqaytirdi. Uchi to'ziq dumini tagiga yig'ib olgach: вЂњHa, jinqarchaxon, taxtga o'tirgilari kepqoldimi?вЂќ deb guvrandi.

Navro'zoy yuragini bosib olib, sipolik bilan dedi:

Eshitishimcha, Qish janoblari menga taxtni o'z ixtiyorlari bilan bo'shatayotgan emish.

Miyasi aynib qolgan o'sha qariya nimalarni o'ylashi menga bir pul! deb g'o'daydi sumbati sovuq qora bulut. Kallasi joyida bo'lsa, tayyor taxtdan voz kecharmidi? U taxtdan ketsa, bizga o'xshaganlar ham amalidan mahrum bo'ladi. Shaxsan men bunga yo'l qo'yib bo'pman. Oxirgi askarim qolguncha jang qilaman! Buni men nayzaboz izg'irinlar lashkarboshisi Ayozzoda aytyapman!

Bu po'pisalarning ostida ne maqsad yotganini tushunib yetgan bo'lsa-da, tepadan uchib tushayotgan toshni orqaga qaytarishga urinishdan nima foyda, deb o'ylagan Navro'zoy Ayozzodaga ko'zini jovdiratib boqdi:

Azaldan belgilab qo'yilgan muddat bitganidan keyin, fasllar saroyida o'z-o'zidan o'zgarishlar bo'lib turishi barchaga ayon-ku. Shunday ekan, bu o'jarligingizdan qanday naf bor? Bo'lmasdan qolmaydigan ishga qarshi chora topish mumkinmi?

Ayozzoda og'zining chetida tirjaydi:

Chora yo'qligini tan olish lapashanglik. Iloji yo'q, tartib shunaqa deb o'tirmasdan, doim dangal harakat qilish kerak.

Gapni tugatiboq, Ayozzoda o'sha dangal harakatni amalda ko'rsatishga kirishdi. Uning ko'zlari shishayotgan pufakdek olayib borgan sayin, sovuq ham zo'rayaverdi. Navro'zoy oldiniga titrashga tushdi, so'ng etlari bo'shshib, uyqu bosayotgandek tuyuldi, oxiri karaxtlangan tarzda turib qoldi. Faqat lablari damo-dam xiyol qimirlab qo'yar, kiprik qoqishlari o'ta sekinlashib ketgandi. Ishni bitirgan Ayozzoda mamnun kekanglab, ortga qaytdi. Ikki yondagi qator-qator xonalar oralab ketgan yo'lakdan tutundek sirg'alib o'tib, Ko'ksaroy maydonchasiga chiqib bordi. Chiqqan zahoti, Kuntug'di otaga duch keldi. Avvaliga, Kuntug'di otaning tafti uni bug'lantirib yuborishi mumkinligidan cho'chib, shuvillab ko'zdan yo'qolishga chog'landi-yu, bu chol balki yaxshilikcha bitim tuzishga rozi bo'lar degan o'y bilan uzoqroqda to'xtadi.

Kuntug'di ota: вЂњBuyoqda nima qilib yuribsan, muzbashara?вЂќ deya hadiklanib so'ragan edi, Ayozzoda: вЂњBittasini akashak qilish zarur bo'qqoluvdi, shu ishni qildikвЂќ, deb burnini ko'tardi. Bundan Kuntug'di otaning bezovtaligi oshdi:

Agar nevaramga tekkan bo'lsang...

Boshqa kimgayam tegardim? deb gapni ilib ketdi Ayozzoda. Qo'rqmang, vaqtinchaga karaxt qipqo'ydim xolos. Navro'zoy ertaga taxtga o'tirolmasa, qarabsizki, mo'ysafid Qish ham o'z o'rnida, biz ham o'z amalimizdamiz.

Baribir niyatingga yetolmaysan, qilvir, qat'iy boqib so'zladi Kuntug'di ota. Avliyolar ming yillar burun aytib qo'yishibdi, dushmanlar Navro'zoyni hushsizlantirsa, kezargon Boychechak ko'makka keladi deb. Mana ko'rasan, Boychechak albatta keladi. Navro'zoy uning isini seziboq, hushiga qaytadi.

Ayozzoda qitmirona qiyaladi:

Boychechak kelolmasa-chi? Navro'zoyni karaxt qilishni uddalagan ekanmiz, o'sha kezargonni muzlatib tashlashgayam kuchimiz yetar?

Endi biron-bir kelishuvni taklif qilib qolar deb turgan Ayozzoda Kuntug'di ota avzoyi buzilganicha yaqinlashayotganini ko'rib, butkul erib ketmasidan oldin shuv-v etib g'oyib bo'ldi. Uning dumidan tutishga ulgurolmay qolgan Kuntug'di ota shoshganicha Ko'ksaroy ichkarisiga qarab yurdi. Nevarasining xonasiga kirib borgach, seskanib to'xtadi.

Navro'zoy bir nuqtaga tikilgan kuyi sopol qo'g'irchoqdek qotib turardi.

Marazlarning marazi kim?

Kezargon Boychechakni sovuqdan asrashga urinayotgan Oqbarsning turishini ko'rib, qah-qah otib yuborgan Ayozzoda, kulgisi tiyilgach, itga masxaraomuz gap tashladi:

Bir bilib qo'yaylik, nechchi daraja sovuqqa chidaydilar?

Bundan battar sovuqlardayam o'lmaganman, dedi Oqbars.

Ayozzoda: вЂњO'ldiradiganini mana endi ko'rasan-davвЂќ, deb chuchchalandi va uyon-buyoniga alanglab: вЂњBoshlanglar, nayzabozlarim! Itniyam beryoqli qilinglar, Boychechakniyam!вЂќ deb hayqirdi. Birdan qoramtir tutunchalar paydo bo'lib, sovuq havodan yasalgan nayzalarini o'qtalagan asno hujumga o'tishdi. Oqbars achitqi izg'irinlarga dosh berib, hali u, hali bu tutuncha bilan so'qishayotgan esa-da, Boychechak tobora so'lg'inlanayotgandek ko'rinardi. Bundan Ayozzodaning ko'ngli chamanga aylandi, вЂњBarakalla, azamatlarim! Ikkoviniyam tarasha qipqo'yinglar!вЂќ deb askarlarini to'xtovsiz qayrab turdi.

Dam u tutunchaga, dam bu tutunchaga tashlanaverib, sillasi qurib bo'lgan Oqbars oxiri Boychechakning ustiga avaylabgina bag'ir bosib, momiq yungli badanidagi bor haroratni unga berishga tirishdi.

Ko'ppakni chetga yumalatib tashlasanglar-chi! askarlariga o'shqirdi Ayozzoda. Menga o'lgan it emas, muzlagan Boychechak kerak. Ko'katvachchani xazondek qovjiratinglar! Tanasini tolqonlab, kuldek to'zg'itib yuboringlar!

Qoni soniya sayin sovib, vujudi izmiga bo'ysunmay boryotgan chog'da ham Oqbars o'z jonidan emas, Boychechakni ezg'ilab qo'yishi mumkinligidan xavfsirayotgan edi. Yana qancha chidarkinman deb turganida, baxtiga Oytug'di ona kelib qoldi.

Oytug'di ona bo'ynidagi tumoridan charaq-charaq nur sochib, qoramtir tutunchalarni kish-kishlab haydagach, Ayozzodaga xo'mrayib dedi:

Yomonning kuchi yapaloqqa yetibdi deganlari to'g'ri ekan. Itimda nima o'ching bor edi?

Qiziqsiz-a, Oytug'di ona, deb qalbaki royishlandi Ayozzoda. Men kimman-u, it kim, unda qanaqa qasdim bo'lishi mumkin?

Bo'lmasa, nimaga qiynayotuvding?

Qiynab o'libmanmi, nechchi daraja sovuqqa chidashimni bilib beringlar deb, it o'zi iltimos qipqoldi. Yo'q deyishga betim chidamadi.

Ayozzoda Oytug'di onaga hanuz dimog'dorlik bilan boqib turarkan, bemahalda qayoqqa ketayotganini surishtirdi. Boychechakni izlab yurganini eshitib, bunaqa o'simliklar atrofda ko'pligi, qidirib yurishning hojati yo'qligini uqtirishga tushgan edi, Oytug'di ona so'zini bo'ldi:

Bilasan, jamiki Boychechaklar menga nevara bo'ladi. Men bugungi tunda hammasidan keyin unib chiqadigan kezargon Boychechakni axtaryapman.

Iye, Boychechakning kezaroniyam bo'larkan-da? yolg'on gapirayotib zarracha qizarib qo'ymadi Ayozzoda. Qani, onaxonga yo'l bo'shatinglar, askarlarim. Borib, tezroq o'sha nevarasini topsin.

Oytug'di ona yurishga shaylanganida, qoramtir tutunchalarning hujumi to'xtagani bois badaniga sal ilqlik yugurgan Oqbars, so'ylanishga qurbi yetmaganidan, zorlangan ohangda ingilladi. Itining nimadir demoqchi bo'layotganini payqagan Oytug'di ona yana to'xtalib qoldi. Buni ko'rib, Ayozzoda bezillab tipirchiladi.

Anqaymasdan, ishni davom ettirsanglar-chi! deb askarlarini qistovga oldi u. Ana, sho'rlik it sinovni to'xtatganimizdan noliyapti. Kambag'alni yaxshilab sinanglar.

Qoramtir tutunchalar sovuq nayzalarini oldinga o'qtala boshlaganlarida, Oqbars bor kuchi bilan qo'zg'alib, yonga ag'darildi.

G'ujanaklanib olgan Boychechak sekingina qaddini ko'tardi-yu, Oytug'di onani ko'rib, quvonib ketdi:

Buvi! Buvijon!

Tanidi, deya mamnun jilmaydi Oytug'di ona. Kezargon Boychechak shunaqa, sheriklaridan bo'lakcha. Hamma yaqinlarini

tushida ko'rib, oldindan tanib oladi.

Oytug'di ona Boychechakni yerdan ko'tarib, avaylabgina ko'ksiga bosdi. Bu vaqtda ancha o'ziga kelib qolgan Oqbars, Ayozzoda tomonga ishora qilib, xasta ovozda dedi:

Anavi qorayaloq Boychechakni muzlatib o'ldirmoqchi bo'ldi.

Oytug'di onaning birdan g'azabi qaynadi. Ayozzodaga jirkanib ko'z qadadi. Endigina so'zga og'iz juftlaganida, Ayozzoda bezlanib turib, o'zi gap boshladi:

Bo'ynimga olaman, dunyodagi marazlarning maraziman. Shunaqa tug'ilgan bo'lsam, nima qilay? Kezargon Boychechakni yo'qotishim kerak edi, shunga urinib ko'rdim.

Oytug'di onaning g'azabi nafratga aylandi:

Nevaraming nima ziyoni teguvdi senga, yashshamagur?

Ayozzoda taxtni Navro'zoy egallashiga qarshi ekanini yashirib o'tirmadi. Navro'zoyni allaqachon karaxt qilib qo'yganligini bildirib, endi uni o'ziga keltirishi mumkin bo'lgan Boychechakni ham zararsizlantirishga majburligini aytdi.

Majbur bo'lsang, majburligingcha yuraver, dedi Oytug'di ona. Bundan berisiga nevaramga yaqinlashib bo'psan.

Oytug'di ona shunday deya bo'ynidagi tumorni bir charaqlatib qo'ygan edi, Ayozzodayu qoramtir tutunchalar chaqindan qamashgan ko'zlarini qora bug'dek eshilyotgan kaftlari bilan to'sishdi. Ayozzoda o'zini o'nglab: в ЁНБу tumorda yorug'lik bor-u, taft yo'q, shu sababli undan qo'rqmayman в ЁК, deb kerilgan edi, Oytug'di ona zaharxanda kulimsirab qo'yib: в ЁНQo'rqqaningdan tiyilib turibsan-da. Bu tumor kuydirmasa ham, ko'zingni ko'r qila olishini juda yaxshi bilasan в ЁК, dedi.

Nima bo'lgandayam, oldindan ogohlantirib qo'yay, deb devlandi Ayozzoda. Agar kezargon Boychechak uyingizdan bir qadam tashqariga chiqsa, uyog'iga jim turolmayman. Buni men doimo gapi gap bo'lib kelgan Ayozzoda aytyapman!

Boychechak: в ЁНShu baqiroqni ko'r qipqo'yaqoling, buvi. Men baribir joyimdan jilmasdan o'tirolmayman, Navro'zoyni topib, hushiga keltirishim kerak в ЁК, deya yalinishni boshlagan edi, Oytug'di ona: в ЁНAvval uyga boraylik-chi, keyini bir gap bo'lar в ЁК, deb yo'lga tushdi. Oqbars ortidan ergashdi.

Mallamosh burganlar orasidan sekingina emaklab chiqib, oyoqni qo'lga olib qochmoqchi bo'lganida, uni ko'rib qolgan Ayozzoda shuvillab borib, oldini to'sdi. Qoramtir tutunchalar mushukni zumda qurshab olishdi, sovuq nayzalari bilan biqiniga bir-ikki nuqib qo'yishdi.

Ayozzoda shunchaki в ЁНruf в ЁК degan edi, mushukning tanasiga sanchiq kirib, bir muddat kulchalanib turdi.

Qayoqqa emaklayotuvding, chalayo'lbars? deb so'radi Ayozzoda.

Gap to'qishga mittiligidanoq usta bo'lgan Mallamosh och qolib, sichqon ovlayotganini aytdi. Hech kimi yo'q yetimcha ekanligi, tashlandiq va qarovsizligi, qirq kundan buyon tuz totmaganini ham qistirib o'tib, turganlarning rahmini keltirishga urindi.

Yovvoyi mushukman deb meni laqillatmoqchi bo'lyapsanmi, tullaki? deya achchig'landi Ayozzoda. Yovvoyi mushuklarning badani chandiqqa to'la bo'ladi. Sendaqa yuvinib-taranib yurishmaydi.

Hozir gapni loyqalashtirib o'tiradigan vaziyat emasligini anglagan Mallamosh: в ЁНHa, oxiri meniyam qo'lga o'rgatishdi в ЁК, deb mung'aydi. Ayozzoda bu o'ramda Oytug'di onadan boshqa hech kim yashamasligini nazarda tutib, piching qildi:

Oytug'di onaning qo'lini yalab kun ko'raman degin?

Buniyam to'g'ri topdingiz, janob Ayozzoda, ming'irladi Mallamosh. Kallangizda o'n besh qop miya bormi deyman?

Meni maqtashga urinib, yaxshi ish qilding, dedi Ayozzoda. Lekin, o'n afsus, yuz afsus, ming afsuski, seni tirik qo'yib yuborolmayman.

Mallamoshning ko'zi qaynab, aybi nimada ekanligini so'ragan edi, Ayozzoda: в ЁНAybing shuki, dushmanlarimga qarashliсан в ЁК, dedi va askarlariga yuzlanib, ma'nodor ishora qildi. Qoramtir tutunchalar mushukning ustiga yopirilishdi. Mushuk jon halpida qayonga sakramasin, qoramtir tutunchalar o'sha yoqda paydo bo'lib, sovuq nayzalarini beayov sanchiyverishdi.

Vag'-g', vag'-g'! Voydod! borliqni boshiga ko'tarib ayyuhannos soldi Mallamosh. Janob Ayozzoda, shafqat qiling! Bir g'aribga nimaga rahmingiz kelmayapti? Hammaga o'xshab, men ham bu dunyoda bir marta yashayman. O'n gulimdan bir gulim ochilmay turib, harom o'lib ketaveramanmi? Bahor kelyapti, hech bo'lmasa, yana bir marta uylanib ko'ray, meniyam orqamda bola-chaqa qolsin. O'tinib so'rayman, o'ldirmang meni. Qulingiz bo'lay, akaginam!

Ayozzoda o'ng qo'lini yuqori ko'tardi. Qoramtir tutunchalar shu daqiqadayoq harakatdan to'xtashdi.

Oxirgi gapingni yana bir qaytar-chi, deya mushukka yaqinlashdi Ayozzoda.

Mallamosh: в ЁНJon achchig'ida aytganlarimning qaysi biri esda qolardi в ЁК, deya dildirab yig'lamsiragan edi, Ayozzodaning:

в ЁНBalki tuzukroq jiq-jiq qilsak, yodingga tushar в ЁК, deganini eshitib, mo'ylovi titradi, в ЁНMenimcha, qulingiz bo'lay devordim-ov в ЁК, deb ko'zini mo'ltiratdi.

Shu so'zlarning rost bo'lsa, menga tirigingcha keraksan, dedi Ayozzoda.

Boshingga qilich kelsayam faqat rost gapir, deb ota-onam har kuni tayinlaydi, boya yetimligini pesh qilganini unutib, aravani quruq olib qochdi mushuk. Shu vaqtgacha bir tomchi yolg'on ishlatmaganman, bizbop xizmat-pizmat bo'lsa, tortinmay aytavering. Ayozzoda chetga boqib: в ЁНHo', g'ildirakko'z! Qayoqdasan? в ЁК deb qichqirgan edi, bir Ukki uchib kelib, yonidagi butaga qo'ndi.

Salgina в ЁНkuv-в в ЁК deb qo'ysang bas, shu g'ildirakko'z allaqachon yoningda turgan bo'ladi, mushukka xizmat-pizmatni yuklashga kirishdi Ayozzoda. Kezargon Boychechak uydan chiqdi deguncha, Ukki orqali menga xabar yetkazasan. Agar pand bersang, dengizning tubida bo'lsang ham topib, mushukka o'xshagan muzqaymoqqa aylantiraman seni.

Bunaqa sovuq gaplarning nima keragi bor? zardalandi Mallamosh. Qulingizman deganimdan keyin, bo'ldi-da. Hali u shubhani, hali bu shubhani ro'kach qilib qo'rqtaverasizmi?

Ayozzoda muloyim tortdi:

Boshqa tomoniniyam aytib qo'yay, topshirig'imni qoyillatsang, mo'maygina mukofot olasan.

Mallamoshning yuragi potirlab, mukofotning qanaqa ekanligini surishtirdi. Ayozzoda: в ЁНNimaligini oldindan bilsang, qizig'i qolmaydi в ЁК, deya uning belini siypaladi. Sovuq qo'l tegishi bilanoq badaniga muz oralagan mushuk sir boy bermay, likillab yaltoqlandi. Erkalatishlarini juda yaxshi ko'rardi, nima maqsadda erkalatishayotgani uni qiziqtirmasdi.

Tayini yo'q mukofot

Kezargon Boychechak uyga kelganidan beri tiqilinch qilib charchamayotgandi. Oytug'di onaning: в ЁНShoshmasang-chi, seni bu yerdan qanday yashirincha olib chiqishni o'ylayapman в ЁК, degan so'zlarini eshitgisi kelmasdi.

Hozir o'ylanib o'tiradigan vaqtmi, buvi, deb toshiqar edi. Navro'zoyni tezroq topmasam, keyin kech bo'ladi.

Qo'rqma, kech qolmaymiz, deya nevarasini tinchlantirishga urinardi Oytug'di ona. Yuzlab yillardan buyon Kuntug'di ukam bilan vaqtida uchrashib yurgan bo'lsam-u, bu safar kechikar ekanmanmi? Buyoqdan seni yetaklab men boraman, uyoqdan Navro'zoyni boshlab Kuntug'di ukam keladi. Tun bilan kunning qizil chegarasida albatta yuz ko'rishamiz. Birpas hovliqmay turgin.

Aytaverasiz-da, buvi. Bu gal ish ancha chigal, ko'nglim bir chatoqlikni sezib turibdi.

Elburutdan yomon niyat qilma. Ayozzodaning birinchi betamizligi emas bu, ilgariyam shunaqa qilg'iliklar qipturgan. Baribir qo'lidan hech nima kelmaydi, iliq havolarning yo'lini to'saman deb, o'zi baloga uchraydi.

Buvisi taskin berishga nechog'li tirishmasin, Boychechakning xunobi oshib borverdi. Oxiri yuragi siqilganicha joyidan qo'zg'aldi:

Yo'q, buvi, sizning oyog'ingizga qarab yurishga sabrim chidamaydi. Oqbarsni minaman-u, hoziroq yo'lga tushaman.

Ayozzoda xuddi shuni poylab turibdi.

Ayozzodadan qo'rqmayman!

Bir buvining, bir nevaraning og'ziga alanglayverib bo'yni og'rib ketgan Oqbars, toqati toq bo'lib, Oytug'di onaga yuzlandi:

Ahvolni ko'rib turibsiz-ku, aytganini qilmaguncha nevarangizning ko'ngli joyiga tushmaydi. Mayli, men uni qizil chegaraga tezroq olib boraqolay, hovuri sal bosilsin. Ayozzoda ro'para kelsa, borguningizcha qo'riqlab turishga yarayman.

Zo'r gapni aytding! sevinib qichqirdi Boychechak. Ketdik, Oqbars!

Shunday deya, bir sakrab, itning beliga mindi. Cho' degan tovush yangrashi bilan Oqbars ilondek sapchilab, eshik sari otildi, Oytug'di ona hoy deyishga ham ulgurmay qoldi.

Otilgan o'qyooydek chiqib ketgan Oqbarsning epkini bosilmay turib, ichkariga Mallamosh kirib keldi. Oytug'di onaga yaqinlashib, ko'zi bejolangan siyoqda: вЂњBu uloqchilar qayoqqa yo'l olishdi, yo Oqbarisning ammasi yana tug'ibdimi?вЂќ deb savolga tutdi.

Boychechak tushmagur meniyam, Oqbarsniyam xit qilvordi, dedi Oytug'di ona. Tezroq yetib bormasa, go'yo Navro'zoy behushligicha qolib ketarmish. Shunaqayam shoshqaloq bo'ladimi!

Mallamosh suzilib bosh chayqadi:

Nimasini aytasiz, hozirgi yoshlarning achchig'i burnining uchida turadi, biri biridan qaysar. Odob qani? Axloq qayoqqa ketdi?

Oytug'di ona bir xo'rsinib olib, o'rnidan turdi:

Mayli, men ham boraqolay bo'lmasa. Tag'in Ayozzodaga yo'liqishib...

Bemalol boravering, onaxonim, qaddini yasovuldek g'o'qqaytirdi Mallamosh. Uyni poylashni menga qo'yib bering. Birorta sichqon sandig'ingizga ko'z olaytib ko'rsin-chi!

Oytug'di ona ketgach, mushuk tashqariga chiqib, uning uzoqlashishini kutib turdi. Keyin, oldingi oyoqlarida og'zining ikki chetini to'sib, вЂњkuv-v, kuv-вЂќ deb ovoz qildi. Choparlikka qoldirilgan Ukki qayrag'ochlar orasidan g'uwillab uchib chiqib, tomning qirrasiga kelib qo'ndi. Mushukning chaquvini eshitib ortga qaytdi, ko'p o'tmay tutunsimon askarlarini ergashtirib olgan Ayozzodani boshlab keldi.

Ketishganiga qancha bo'ldi? sovuq purkab so'radi Ayozzoda.

Ko'p bo'lgani yo'q, dedi Mallamosh. Ja borsa, bir sichqon yeyishchalik vaqt o'tgandir-da.

Bu gapdan jizzakiligi qo'zigan Ayozzoda: вЂњBitta sichqonni qanchada yeb bo'lasan, meshqorin?вЂќ deb o'shqirgan edi,

Mallamosh: вЂњSichqon tutib bersangiz, buni aniq bilib olardingizвЂќ, deya tamshandi.

Mushukning taltayishi Ayozzodaga yoqmay, qovog'ini uydi. Shu kepatada turib: вЂњTezda ularning iziga tush, nima qilib bo'lsayam yo'ldan chalg'it. Kezargon Boychechak Navro'zoyni oldiga kerakli muddatda yetib borolmasa, mukofotning naq uch baravarga oshiramanвЂќ, dedi. Buni eshitib, Mallamosh peshanasini qirt-qirt qashladi, ko'zi alag'dalandi. Nimaligi hanuz tayinsizligicha qolayotgan mukofotning uch baravari ko'tarasiga qancha salmoqqa ega ekanligini bilolmay garang edi.

Har holda, chalaroq bo'lsayam bilvolsak, zarar qilmasdi, deb chaynaldi u. O'sha mukofotning yo shakli, yo ta'mi, yo qimmatini to'g'risida qittak shama qilib o'tsalar deganidim.

Aytuvdim-ku, bilsang qizig'i qolmaydi deb, o'zining mujmalligida turib oldi Ayozzoda.

Unda, yo'q narsaning uch baravari taxminan qanaqaroq bo'lsaykin?

Buni chamalash uchun miyani achiguncha ishlatishiga to'g'ri keladi. Oldiniga jahondagi hamma narsani ko'z oldingga bitta-bitta keltirib, keyin shulardan qaysi biri senga atalgan bo'lishi mumkinligi ustida bosh qotirasan. O'ylayverib kallang yorilay deganida, e bor-e, unisi bo'lmasa, bunisi qo'lga kirar degan to'xtamga kelasan. Qo'lga kirishi mumkin bo'lgan biron narsaning bir varakayiga uchtasiga ega bo'lish uch baravar mukofot deyiladi.

Demak, bu yo uch tog'ora pishloq, yo uch dona ushoq. Shunaqa desa, to'g'ri bo'ladimi?

Juda uquvsiz maxluq ekansan. Mukofot pishloq degani ham emas, ushoq degani ham emas. Chunki, falon narsa oldim demaysan, mukofot oldim deysan. To'g'rimi?

To'g'ri-yov!

Mana endi zehnlab yetgandirsanki, mukofotning qanaqa mukofot ekanligini oldindan bilishing, ko'ngling to'lish-to'lmasligi hech nimani hal qilmaydi. Mukofot, bu mukofot! Vassalom!

Miyasi qatiqqa aylana boshlaganini his etgan mushuk so'rrayib turib qoldi. Mukofotni hansirab-hansirab qabul qilish o'ta maroqli, ammo jinni bo'lib qolmay desang, to olmaguningcha, u haqda o'ylamagan ma'qul ekan.

Mushukni fikrlar changalorida adashtirib huzurlanayotgan Ayozzoda gapni yana asosiy maqsadga burdi:

Shunaqa, mushukvoy, kezargon Boychechakni Oqbarsga qo'shib biron-bir falokatga yo'liqtira olsang, uch baravar mukofot qopidan yuqigacha seniki. Bu ishni bajaring kelmasa, tug'ilganingga attang qildirvoraman!

Muz-muz gaplarni gapiraverib, yuragimni tushirib qo'ymasangiz yaxshiydi, dedi Mallamosh, rangi o'chib. Bizga o'xshaganlardan ming marta kuchlisiz, meni qiynamay, ularni o'zingiz kesak qipqo'yaqoling-da.

Haqiqatan ham bu ish Ayozzoda uchun cho't emasdi, faqat bunday qilishni istamayotgandi. Sababi, ortdan yetib kelgan Oytug'di ona Boychechak bilan Oqbarsni muzlab yotgan holda ko'rsa, bu Ayozzodaning ishi ekanligini tezda fahmlaydi, o'ch olmay qo'ymaydi. Ular o'zlari qandaydir ishkallikka yo'liqishsa, bu boshqa masala, Ayozzoda oppoqligicha qolaveradi. Birovni ayblash uchun dalil kerak, Oytug'di onaning shubhasi esa dalil bo'lolmaydi.

Ayozzoda buni mushukka ijikilab o'tirmay: вЂњTagini kavlamasdan, aytganimni indamay qilishni o'rganвЂќ, deb o'dag'ayladi.

Obbo, deb aftini bujmaytirdi Mallamosh. Oqbaris niyatimni sezib qolmasin-da, ishqilib. Sezsa, o'sha joyning o'zida atalamni chiqaradi.

Vahima qilma, dedi Ayozzoda. Hammasi joyida bo'ladi. Buni men sendaqangi ablahlarning qo'lidan nimalar kelishini yaxshi bilgan Ayozzoda aytyapman!

Ayozzoda gapini qildirmasdan qo'ymasligini anglagan Mallamosh taqdirga tan berdi. Yangi egasiga boqib: вЂњUnaqa bo'lsa, meni to'g'ri botqoq tomonga uchirib boring. Ularni o'sha joyda kutvolib, o'sha joyda gumdon qilaman вЂќ, dedi.

Shunday deya, bir irg'ib, Ayozzodaning belidagi tasmaga o'tkir tirnoqlarini botirdi. Ayozzoda shuv-v etib joyidan qo'zg'aldi, tasmasida salanglab turgan mushuk bilan birga havoga ko'tarildi. Tutunchalar askarlik tuzigidagi qoidaga bo'ysunib, qayoqqaligini surishtirib o'tirmasdan, lashkarboshi yo'nalgan yoqqa qarab siljishdi.

Osmo'ning qoramtir tusga kirgan qismini yomon maqsadlar qoplab olganga o'xshardi.

Ko'zi ojiz yetakchi

Rivoyatda qanday bitilgan bo'lsa, so'zsiz xuddi o'shanday bo'ladi. Aytilmalarning xatodan xoliligi necha zamonlardan buyon turmushda isbotini topib kelyapti.

Fasllar rivoyati o'zgaruvchanlikka moyil his-tuyg'ularning emas, asosga tayanuvchi aql-idrokning mahsuli. Unda aytilgan ekanmi, demak Oytug'di ona bilan Kuntug'di ota, Boychechak bilan Navro'zoy belgilangan kun, belgilangan fursatda uchrashmasdan qolmaydi. Yilma-yil shunday bo'lib kelgan, bugun yana shunday bo'ladi, kelgusida ham shunday bo'laveradi. Buni o'zgartira oladigan kuch yer sathida yo'q. O'zgartirish zarurati tug'lsa, bu ishni shunday tartibni joriy etgan fazoviy Quadratning o'zigina amalga oshirishga qodir.

Kuntug'di ota karaxtlangan Navro'zoyga yo'l-yo'lakay shu yanglig' hikmatlarni so'zlab kelar, zora eshitayotgan bo'lsa deb umid qilardi. Axir, yetaklasa, imillab bo'lsa-da odimlayapti-ku. Shunday ekan, nega endi elas-elas eshitmasin? Agar eshitayotgan bo'lsa, Boychechak to'g'risidagi so'zlarni tinglaganda, ichi yashnab-yashnab ketayotgandir?

Bu qanaqasi bo'ldi, bu? Yerning tagidayam tinch qo'yishmaydi-ya!

Qulog'iga ortdan tovush chalindi-yu, Kuntug'di ota Navro'zoyning qo'ltig'idan burib, o'sha yoqqa o'girildi. Chap qo'lida hassa ushlab olgan Ko'rkalamush yer ostidagi uyasidan chiqib, kavakning chetida uyon-buyon alanglab turganini ko'rdi.

Uyimning tomida gupir-gupir qilayotgan kim o'zi? quruq do'qni davom ettirdi Ko'rkalamush. Bizga o'xshaganlarga kun bormi? Kuntug'di otaning yuziga samimiylik yoyilib, keksayibroq qolgan jonivorga iltifot bilan muomala qildi:

Yaxshi yuribdilarmi, taqsir? Bu menman, Kuntug'di otaman.

Ko'rkalamushning chehrasi charog'onlanib: вЂњIye-iye, o'zlarimilar? Xush ko'rdik, Kuntug'di ota, xush ko'rdik. Tanamga taftingiz tekkanidayoq, sizga yo'liqqanimni fahmlashim kerak edi men lodon. Tabarruk zot bilan uchrashish nasib etgan ekan, bir ko'rishib qo'yaylik вЂќ, deya ikkala kaftini oldinga cho'zib o'rmalaganicha ularning yonidan o'tib ketdi. Borib, nariroqdagi chuqurchaga ag'anadi.

Kuntug'di ota Navro'zoyni ehtiyotlik bilan yana ortga burib, Ko'rkalamushga qanday ko'maklashishni bilmay turganida, u tezda oyoqqa qalqdi-yu: вЂњSezgisiga ortiqcha bino qo'yib, hassani ishlatmaganning jazosi mana shub вЂќ, deya chuqurdan chaqqon chiqib keldi.

Men buyoqdaman, taqsir, Ko'rkalamushning shu yoshda ham tetikligiga havas-la boqib ovoz qildi Kuntug'di ota. Mana, to'g'ringizda turibman.

Ko'rkalamush: вЂњE, qadamlariga hasanot вЂќ, deb, hassasida yerni cho'qilay-cho'qilay, ularga yaqinlashdi. Hassasini oldin Navro'zoyning, so'ng Kuntug'di otaning oyoqlariga urib ko'tib: вЂњKuntug'di ota bitta bo'lsa kerak deb yurardim, ikkita ekansizlar-da, a? вЂќ deya sayroqilandi.

Kuntug'di ota miyig'ida kulimsirab dedi:

Men haliyam bittaman. Yonimda nevaram Navro'zoy ham bor.

Yolg'iz kelmaganingiz yanayam soz bo'пти, joyida tipirchilab bidirladi Ko'rkalamush. Qani, ichkariga kiraylik. Bulturgi makkalardan anchagina bor. Burnoq yilgisini yaqinda yeb tugatdim. Uyog'ini so'rasangiz, aziz mehmonlarga atab, toza bug'doydan ham bosib qo'rganman.

Rahmat, taqsir. Hozir sal-pal shoshib turuvdik.

Unaqa bo'lsa, qayoqqa shoshilayotganlarini bilib qolaylik.

Kuntug'di ota qayoqqa ketishayotganini aytgach, Ko'rkalamush Navro'zoyning nega jim turgani bilan qiziqib: вЂњSuvarakdan tortib Tipratikongacha bizga birinchi bo'lib salom berardi, nevarangiz haliyam indamayotganiga hayron bo'pqoldim-da. Yo og'zida qand bormi? Biz ham bittasini tatib ko'raylik bo'lmas вЂќ, deb o'ng qo'lini oldinga cho'zdi. Kuntug'di ota nevarasi gapirolmay qolgani, dushmanlar uni yarim behush qilib qo'yganini bildirdi.

He atta-a-ng, he atta-a-ng, deb qo'lini pastga tushirdi Ko'rkalamush. Yo'q qandga qo'l cho'zib, sharmanda bo'ldim-ku. Buni birovga aytib yurmang, Kuntug'di ota.

Kuntug'di ota tag'in kulimsiradi.

Ko'rkalamush endi Navro'zoyga achinishga tushdi, uni sovuq nafasida karaxtlantirib qo'ygan Ayozzodani bo'ralab qarq'adi.

Kuntug'di ota qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramay, bu qing'ir-qiyshiq yandamaliklarda qiynalib qolishlarning mumkin, sizlarni o'zim boshlab bormasam bo'lmaydi, deb turib oldi. Hassasini tikillatib, oldinda yo'rg'alashga tutindi. Picha yurishgach, yomg'irlar ko'lmaklanishidan namiqqan bo'kak pastqamlikdagi majnuntolsimon qirchinlardan biriga duch kelib, uni hassasida urib-urib ko'rdi va: вЂњXo'sh! Xo'sh deyaapman! вЂќ deb dag'dag'a qildi.

Oldingizda qirchin turibdi, taqsir, dedi Kuntug'di ota.

Iye, shunaqami? aslo xijolat tortmasdan yonroqqa burildi Ko'rkalamush. Bu qirchin deganiyam sigirning tuyog'iga o'xshab ketarkan. Mayli, aylanib o'taqolamiz.

Ko'rkalamush yo'l bosayotib, tinimsiz javranib bordi. Yoshligida bir Yumronqoziqxon sizni yaxshi ko'raman deb yurib, omboridagi hamma donni yeb qochgani qolmadi, daladagi uvatga tashlab ketilgan siniq tandirni eshak bilan adashtirib, meni ham bir mindirsangiz-chi deya yalingani qolmadi, o'z uyasini yanglishtirib, qo'shnisining uyiga kirib borgani, bilmasdan qizlarining qatoriga yotib olgani qolmadi, hiringlab-hiringlab so'zlayverdi. So'ng, jiddiyroq masalaga o'tib, toshga xat bitish rusumga kira boshlagan zamonlarda bu chek-chegarasiz yerlar birgina Ko'rkalamushlarga qarashli bo'lgani, keyinchalik o'zga burundorroq jonzotlar ham bir-bir makon qurib, ularning naslini buzgani, shu to'g'rida bo'yi tengi kitob yozishni o'ylab yurganligini bayon qila ketdi.

Kuntug'di ota qancha olg'a yursa, qorong'ilik undan shuncha chekinib borayotgandi. Kimlardandir oldinroqda odimlashni o'ziga

xos bir mansab deb biluvchi Ko'rkalamushga esa yorug' bilan qorong'uning farqi yo'qdek edi.

Ko'zi ochiqlarning gapiga qaraganda, odamlar uchun ertaga sumalak bazmi boshlanarkan-da, a? yo'ldoshining diqqatini qaytadan o'ziga jalb etib, suhbatni bo'lak o'zanga burdi Ko'rkalamush. Sumalak nima o'zi?

Ivutilgan bug'doyni shu yerlik kishilar qadimda suma deyisharkan. Suma solib pishirilgan taom, ya'ni sumaliq bora-bora sumalak bo'lib ketgan ekan. Gapni tag-tugigacha bilib olgan Ko'rkalamush: v Ё Odamzot deganiyam ta'bi o'rtamiyona jonliq-da. Tap-tayyor bug'doyni ivitib nima qiladi, qozonga solib atalashning nima keragi bor, o'zini karsillatib-karsillatib yesa, ana mazza-yu mana mazzav Ёk, degan edi, Kuntug'di ota: v Ё Sizniki to'g'rimi, ularniki to'g'rimi bilmadimu, ammo-lekin bu gaplaringizni odamlarga chikitib qo'yamanv Ёk, deb tegishqoqlik qildi.

Odamlarga yana bir narsani shipshitib qo'ying, otaxon, dedi Ko'rkalamush. O'sha sumalakdan bizgayam ehson-pehson qipturishsa, chakki bo'lmasdi.

Bo'пти, buniyam aytaman.

Tamagirlik qilyapti deb o'ylamang tag'in. Bu shunchaki qiziquvchanlik-da.

O'zini oqlash uchun emas, to'g'risini gapirdi shekilli Ko'rkalamush. Axir, sovuq o'lkada yashaydiganlar issiq yurtlarda echki ham yemay yotadigan bodringni umrida bir kavshab ko'rgisi keladi-ku.

Ko'rkalamush Navro'z bayramini bor-yo'g'i sumalak bazmidan iborat marosim deb tasavvur qilayotganidan Kuntug'di ota afsuslanib ketdi. Agar, yer yuziga kengroq nazar tashlansa, barchani bir xil yumushga yo'naltirib, bir xil maqsad atrofida jamlashda bunga teng keladigan bayram yo topiladi, yo topilmaydi.

Tong otar-otmas, harakat hamma joyda bir xil boshlanadi kundalik odat tusini olgan hovli va ko'chalarni supurishdan tashqari, bu kuni ariqlar, hovuzlar tozalanib, yuvilgan chinnidek qilib qo'yiladi, daraxtlarga shakl berilib, bog'lar xas-xazonlardan xalos etiladi, ekinzorlar uvatidagi qovjiroq o'tlar qirtishlab tashlanadi, ko'chatlar, gullar ekiladi. Hatto, qabristonlarga oro beriladi.

Kentu qishloq mahallalaridagi bazmlarni, ziyofatlarni, hofizlaru mashshoqlar, oqinlaru laparchilar, dorchilaru ko'zbo'yamachilar, askiyachilaru qiziqchilar, poygachilaru kurashchilar, xo'rozvozluru bedanavoqlar ishtirokidagi tomoshalarni, yarim kechada ham tugamaydigan o'yin-kulgilarni, berigi tongdan narigi tongga ulanib ketuvchi sumalak soldilarni qo'yib turaylik, bu kuni bayramning nashidasi yetib bormagan biron-bir ovloq joy qolmaydi. Qirlarda v Ё chuchmomo topdiv Ёk, tog'larda v Ё lola uzarv Ёk sayllari avj oladi, dashtlar basma-basiga varrak uchirayotgan bolakaylar bilan to'lib-toshadi. Biri biridan guldor varraklarning ipi uzilganlari chirpiraganicha uchib-uchib borib, sahrolarga tushadi, qumloqlarni uyg'otadi.

Dalalardagi tantanavorlikning shavqi butunlay o'zgacha. Jussasi yarqiragudek yuvib-taralgan Ho'kizni eski udumga ko'ra ekinzorga yetaklab kirishib, qozonimiz yog'li bo'laversin degan umidda muguziga moy surtishadi, keyin omoch qo'shib, yerning uzunasigayam, ko'ndalangigayam to'qqiz qadam qismini haydashadi. Turganlarning barchasi ichida tilak aytib, hovuchidagi urug'larni sochishadi.

Bu marosim tugagach, uvat bo'ylab yoyilgan sholchalardagi to'shaklarga borib o'tirib, o'rtadagi dasturxonni qurshovga olishadi. Oqsoqollardan biri tilovat qiladi. Olamdagi borliq ezgu istaklar bayon etilib, yuzlarga fotiha tortiladi.

Ana endi, navbat v Ё eyaver-ichaverv Ёkga keladi. Dasturxonda jiq-jiq noz-ne'mat. Har kim elga ilinganini keltirib, o'rtaga tashlab qo'yibdi: jizzali patirlar, sedanali shirmonlar, varaqiyu qatlamalar, holvaytaru sumalaklar, mayizu qoqilar, anjir murabbosiyu tut shinnilari, asalu novvotlardan tortib, qishda uyning shipiga ipda ilib saqlanadigan uzum, behi, anor kabi osilg'ilaru, asrang'i qovun-tarvuzlargacha bor. Og'ziga solsa, o'likni tiriltiradigan bilqildoq ko'katmanti terilgan tovoqlar qo'lma-qo'l aylanadi. Ayniqsa, dumba yog'i qo'shib yopilgan ko'ksomsalar alohida e'zozda, keksalar ularni yeyishdan oldin ko'zlariga surtishadi. Doshqozonda pishayotgan to'ypalovning isi dimog'ni yoradi.

Hozir bularning barini aytib bersa, yemsoq Ko'rkalamush hayajondan shaytonlab, guppa ag'darilishi hech gapmas.

Navro'zoy qisqa-qisqa qadam tashlaganicha hanuz jimgina kelar, goho qoqinib ketsa, qo'ltig'idan mahkam tutib olgan bobosi uni yana muvozanatga solib qo'yardi.

Oldinda o'rmalayotgan Ko'rkalamushning hassasidan taralayotgan v Ё tikir-tikirv Ёklar ham, og'zidan yog'ilayotgan v Ё bidir-bidirv Ёklar ham jimjitlik qo'ynida o'zgacha bir ohang kasb etayotgandi. Go'yo kimdir: v Ё Sen so'zlashdan to'xtaganing zahoti olamni suv bosadiv Ёk, degan-u, u jahonni falokatdan asrab qolishga astoydil urinayotgandek edi.

Tevarakda yiltillab-yiltillab ko'rinayotgan tillaqo'ng'izlardan biri tumshug'ining yonginasidan vizillab uchib o'tdi-yu, Ko'rkalamush qulog'ini dikkaytirib, joyida to'xtaldi. So'ng olg'a yurishda davom etarkan, o'zicha tasmollandi:

Bironta g'ilayroq ovchi chalama-chakki kamon otdimi deyman-da. O'qi g'o'ng'illaganicha kelib, burunginamga tegay-tegay deb o'tdi-ya. Bay-bay-bay!

Eshakda nega dum bor?

Qayoqqa ketyapmiz, dadajon?

Endi izz'irinlar tinib, iliq epkinlar esadi. Yangi kun boshlanishini bir ko'rib olgin deb, seni ataylab sayrga olib chiqdim-da, o'g'lim. Navro'zoyning kirib kelayotganini tomosha qilib turish hammaqayam nasib etavermaydi.

Xo'tik otasining biqiniga erkalanib bosh ishqadi:

Navro'zoy deganingiz qanaqa o'zi?

Chiroyli! lo'nda qilib ta'rifladi Eshak.

Navro'zoy kelsa, uyam sizni minadimi?

Qaniydi minsa! Kimdir ustimga minib olganidan umrimda birinchi marta suyungan bo'lardim.

Odamlar tarvayib egarga o'tirib, v Ё xixv Ёk deya quymichiga qamchi ursa, Xo'tikning har gal otasiga rahmi kela boshlardi.

Oyisini minishsa-ku, tamoman xo'rliqi qo'zib, yig'lab yuborishiga ozgina qolardi.

Shu odamzot degani qanaqa mavjudot bo'lsaykin? O'zlarida ham oyoq bor, o'shanda yuraversa, o'lib qolishadimi?

Katta bo'lsam, odamlar meniyam minisharmikin? otasiga bo'yin qisib boqdi Xo'tik.

Buvamni minishgan, otamni minishgan, meni minishyapti, deya o'ychan javob qildi Eshak. Shundan o'zing xulosa yasab olaver, o'g'lim.

Mindirmasam-chi? Qassobga berib yuborishadimi?

Yo'q. Biz Buqa yoki qo'y emasmiz, bizni qassobga sudrashmaydi. Qaysarlik qilsak, yo sotvorishadi, yo yem bermay qo'yishadi.

Xo'tikning savollari ko'p edi, barini aytishga ulgurolmadi. Shu tomonga yaqinlashib kelayotgan Oqbarsni ko'rib: v Ё Iya, anavi itni qarang, beliga gul taqib olibdiv Ёk, deya tumshug'ida otasining biqiniga nuqiladi.

Eshakning ko'zi o'g'linikichalik o'tkir emasdi. Nimqorong'ida zo'riqib boqib: вЂњHo', Bo'bik, sendan bir narsani so'rasam maylimi? вЂњ dekan edi, it to'xtab: вЂњBo'bikmas, Oqbarsman. Nima gaping boridi? вЂњ dedi.

Xato o'ylayotgan bo'lsam, kechirasam, madaniyroq so'zlashga harakat qildi Eshak. Ustingda ilashib kelayotgan giyoh, mabodo, kezargon Boychechak emasmi?

Oqbars hayron bo'lib: вЂњVo, buni qayoqdan bilding? вЂњ deb so'ragan edi, Eshak: вЂњBuvam bir mahallar ustiga Boychechakni mindirib olgan nihoyatda haybatli itni uchratgan ekan. Laqabi вЂњkezargon вЂњ bo'lgan o'sha Boychechak behush Navro'zoyni o'ziga keltirib, dunyoni abadiy sovuqdan asrab qolibdi o'shanda. Buvam buni o'z ko'zi bilan ko'rganini otamga aytgan ekan, otam menga aytuvdi вЂњ, deya o'tmishdagi gaplarni to'kib soldi.

Buni eshitib, kezargon Boychechakning xayolida: вЂњBuvimning so'zlari rost ekan. Demak, Ayozzoda Navro'zoyga ilgariyam xuruj qilgan-u, qaysidir ajdodim uni qutqarib qolgan вЂњ, dekan fikr kechgan bo'lsa, Oqbars: вЂњOta-buvalarim eskitdan shunaqa qahramonlik ko'rsatib kelishgan ekan-dav вЂњ, deb o'ylab, mag'rurlanib ketdi.

Eshak Oqbarsga bolalik xotiralarini so'zlab berayotgan pallada Xo'tik g'alati bir manzaraning guvohi bo'ldi. Tepadan to'p-to'p qora tutunchalar o'ta boshladi. Oldiroqda tim qora bulut uchib borar, unga tirmashib olgan qandaydir maxluqning orqa oyoqlari to'xtovsiz tipirchilab turardi. Bo'rsiqmikan? Balki Sug'urdir.

Xo'tik ularni yaxshiroq ilg'ab ulgurmasidan, Ayozzoda va askarlar do'nglik uzra suzib o'tib, pastga sho'ng'ishdi.

Umrida ilk bor uchib ko'rgan Mallamosh qo'rquvdan potirlayverib toliqib ketgani bois, yerga tushiboq, cho'zilganicha yotib oldi.

Tur! uni g'azabladi Ayozzoda. He, so'ljaymay o'l. Nima, seni dam oldirishga opkeldimmi? Tur-e!

Mallamosh erinibgina qaddini ko'tardi. Dam kerishib, dam etlarini qattiq titratib, tanasidagi uvishiqni haydashga tirishdi.

Ayozzoda: вЂњAna, o'sha botqog'ing. Xo'sh, buyog'iga nima qilmoqchisan? вЂњ deya sovol bergan edi, Mallamosh: вЂњSizning sovg'angizga o'xshab buyam bir sir, oldindan bilsangiz, qizig'i qolmaydi вЂњ, deb tirjaydi. So'ng og'zini karrakdek ochib esnadi.

He, sulla! unga yeb qo'ygudek bo'lib boqdi Ayozzoda. Shunaqa lanjlanib ishning pachavasini chiqarsang, o'zing tugul, urug'ingniyam quritvoraman. Buni men quritish bo'yicha bosh mutaxassis Ayozzoda aytapman!

Ayozzoda mushukning har bir qadamini chetdan kuzatib turishini ko'z olaytirganicha ta'kidlab qo'yib, askarlarini qamishzor sari yetakladi. Mushuk dushmanlarni qanday cho'ktirayotganini miriqib tomosha qilmoqchi edi, chamasi.

Turqi sovuq xo'jayindan vaqtinchaga bo'lsa ham qutulgan Mallamoshga rohat bag'ishlab, yana yerga cho'zildi. Shu yotishda qulog'iga allaqanday tapir-tupurlar chalindi, do'nglik tomonga erinibgina bosh burib, sinchikovlanib boqdi. Agar hozir mushukning o'rnida odam bolasi bo'lganida, havo nechog'li ochiq, tun qanchalar tiniqligidan qat'i nazar, sharpalarni g'ira-shira payqashdan nariga o'tolmas edi. Jonivorlar esa tunda narsalarni odamlarga nisbatan bir necha bor aniq, ayrimlari deyarli kunduzdagiday ko'ra olishadi. Tim qorong'i kechada uyning u chetidagi kavakdan bosh chiqargan sichqonni bu chetida turib ilg'ay oluvchi mushuk do'nglikdan Oqbars, Eshak va Eshakcha tushib kelayotganini yaqqol ko'rib ham, shalpayib yotaverdi.

Otasi Navro'zoyni mindirishni orzulaganini eslagan Xo'tik, yonida toychoqlanib borayotgan Oqbarsga ko'zi kuyib tikildi. Bir necha daqiqa ilgari birovlariga mingi bo'lishdan ijirg'angan edi, endi buni unutib, itga yanada yaqinlashdi va elancholik bilan dedi:

Ke-e, Oqbars, kezargon Boychechakni men ham ozgina mindirib yuray. Bo'ptimi-i?

Oqbars bu taklifga qarshi emasligini bildirib, yurishdan to'xtadi. Xo'tik uning yoniga cho'k tushdi. Boychechak bir irg'ishda yangi ulovning beliga qo'ndi.

Boychechakdan вЂњo'rnashib oldingmi вЂњ, deb so'rab qo'ygach, Xo'tik asta o'rnidan turdi, ko'zlarida surur uchquni yallig'lanib, oldinga qo'zg'aldi. Otasiga yetib olib, yonma-yon yo'rg'alarkan, g'ururlanganicha bir qiyalab qo'ydi. Ota o'g'lining bu ishini ma'qullagandek, salobat bilan bosh qimirlatdi.

Cho! deb, bargida Xo'tikni qamchilagan bo'ldi Boychechak. Yaxshiroq o'rmala, kichkintoy.

Birinchidan, bizga cho' deyilmaydi, xix deyiladi, deb chaynaldi Xo'tik. Ikkinchidan, yiqilib ketmagin deb, atay sekin yuryapman. Mallamoshni birinchi bo'lib Xo'tik ko'rди va: вЂњHay-hay-hay, anavi mushukning yalpoqlanib yotishini qaranglar вЂњ, deya sho'xchan xanda qildi. Oqbars diqqat bilan boqib: вЂњIye, bu Mallamosh-kub вЂњ, dekan edi, mushuk shoshmasdan o'rnidan turib, tundlandi:

Mallamosh endi esingga tushdimi? Bir og'iz shipshitib meniyam birga olib kelsang, burgang ko'payib ketarmidi? Orqangdan qidirib uyoqqa chopaman, buyoqqa chopaman, jonimda jon qolmadi-ku.

Shunga shunchami? o'zini oqlagan bo'ldi Oqbars. Biz shoshib yo'lga chiqdik, sen uyda yo'q eding.

Ha, mayli, deya labini burdi mushuk. Birovlarni o'rtoq deb yurib, bundan battar qiliqlariniyam ko'rganmiz.

Adi-badilarning cho'zilayotganidan g'ashi kelgan Boychechak, vaqillab turavermay tezroq oldinga yurishlari, tun bilan kunning qizil chegarasiga vaqtida yetib borishlari lozimligini sheriklariga yana bir bor qaytariqladi. Mallamosh Boychechakning gapiga qo'shilish bilan birga, qizil chegaraga olib boradigan eng yaqin yo'l chaproqda ko'rinib turgan qamishzordagi so'qmoq ekanligini ham qistirib o'tdi. Bundan quvonib ketgan Boychechak Xo'tikka o'sha yoqqa yurishni buyurayotganida, Eshak: To'xtanglar! deb baqirdi.

Mushuk yolg'on gapiryapti, dedi u. Qamishzorning ichkarisi botqoq. Domiga tushsang, oyog'ingdan tortishni boshlab, qulog'ingda tugatadi.

O'zing aldayapsan bizni, Eshakka davara qildi Mallamosh. Boya bir podachi qo'ylarni o'sha tarafga haydab ketdi. Yetakchi Serkadan so'rasam, egamiz bizni qizil chegaraga olib ketyapti, hademay bayram boshlanarmish dedi.

Agar podachi o'sha yoqqa yurgan bo'lsa, yo'l borligi aniq, odatiga ko'ra shoshqaloqlandi Boychechak. Ketdik!

Xo'tik: Dadajonim to'g'ri aytyapti, deb joyidan jilmadi. So'ng, bundan o'n kuncha oldin bilmasdan qamishzorga kirib qolgani, botqoqqa cho'ka boshlaganida otasi yetib kelib, dumini uzatgani, shu dumni tishlab balchiqdan zo'rg'a chiqib olganini hikoya qilishga tutindi.

Avvallari eshakka dumning nima keragi bor deb yurardim, mittivoylarga xos jikillab iljaydi u. Endi bilsam, botqoqqa botayotgan bolasini tortvolishda asqotar ekan. Hang-hing, hang-hing...

Boshqalarning ham o'z-o'zidan kulgisi qistadi.

Sotqinning pushaymoni

Oytug'di ona Oqbarsning izini ko'zdan qochirmaslik uchun bo'ynidagi tumorini yoqib olib, ancha yo'l yurdi. Izlarning bir tekisda ekanligi it hech qayerda to'xtamay borayotganidan darak berardi.

Tomirlaridagi ko'rinmas og'izchalari bilan yerni ko'proq emishga urinayotgan butasimon yovvoyi tutlar changalzori, yuzasini oqish qasmoq qoplagan sho'rxokliklar, u yer-bu yerida maysalar chumaklanib qolgan bo'ztuproq o'nqirliklardan o'tib kelgan Oytug'di ona, endi qachonlardir qorovultepa vazifasini o'tagan do'nglik sari ko'tarila boshladi. Tepaga chiqqach, naryoqdagi yalanglikda nima haqidadir juvirlashib bahslashayotgan Oqbars, Mallamosh va ota-bola Eshaklarga ko'zi tushdi. Pastga yurib, ularga yaqinlashib borarkan, Mallamoshning bu yerda qanday paydo bo'lganidan ham, kezargon Boychechak bu gal Xo'tikni minib olganidan ham birdek taajjublandi.

E xayriyat, ana, Oytug'di onamiz yetib keldilar, deya egasini shodlanib qarshi oldi Oqbars. Yo'lni o'zlari yaxshi biladilar. Mallamosh o'ng'aysizlanib, tevarakka elovladi.

Yo'lga chiqqanimda, sen uyda qoluvding, dedi Oytug'di ona, mushukka hadikli boqib. Buyoqqa qanday keppolding? Yon-verimdan o'tsang, payqagan bo'lardim.

Eng yaqin yo'llarni bilishda mendan o'tadigani topilmaydi, deya o'z niyatini amalga oshirishga zamin hozirladi Mallamosh. Hozir ham bularga kesma so'qmoqni ko'rsatsam, oyoqlarini tirab turishibdi.

Botqoqda so'qmoq nima qiladi? deb qizishdi Eshak.

Oytug'di ona tortishuvga o'rin yo'qligi, buyog'i uncha olis emasligini aytib, o'zi yo'l boshlab berdi.

Bari sokin kayfiyatda borar, barchaning qiyofasi xotirjam edi. Oytug'di onaning vaqtida yetib kelishi ularni muqarrar o'limdan asrab qolganini mushukdan bo'lak hech kim bilmasdi.

Mallamosh Oqbarsning yonida tosrayib odimlar ekan: вѢѢQorin qalay, oshna?вѢќ deb so'radi. вѢѢO'rtachadan mundog'roqvѢќ, degan javobni eshitib, og'zini bir chapillatib olib, vijirlashga tushdi:

Eh, Oqbaris,Oqbaris... Hozir ikkovimizning o'rtamizda bir kosa qaymoq turgan bo'lsamidi! Mening yalashim manavi chilip-chilip, chilip-chilip. Yana chilip-chilip, tag'in chilip-chilip. Uyog'idan chilip-chilip, buyog'idan chilip-chilip. Sening yalashing manavi shap-shap-shap, shap-shap-shap. Shapira-shupur, shapira-shupur, shapira-shupur...

Oqbars ketma-ket so'lak yutib: вѢѢE, bo'ldi-евѢќ, dedi-yu, qadamini tezlatib, mushukdan nari ketdi.

Yo'l yurganlari sayin, Mallamoshning bezovtaligi oshaverdi. Oxiri, sheriklaridan orqaroqda qolib, o'zini panaga urish uchun chetga burilayotganida, sezgir Oqbars o'grilib boqib: Ha, tinchlikmi? deb so'radi. Mallamosh yerga tappa o'tirib, oldingi panjasini og'zida kux-kuxlarkan: вѢѢBilmasdan ko'ztikonni ezvolibman. Boraveringlar, yetib olamanвѢќ, dedi.

Oqbars yana oldinga yurgan chog'da Xo'tik unga yaqinlashib: вѢѢO'ylab qarasam, boyaginda shu mushukni ko'rgan ekanman, buyoqqa qora bulutga osilib uchib keldivѢќ, deya shunchaki gurunglashgan bo'ldi. Oqbars esa: вѢѢQanaqa bulut?вѢќ deb, qulog'ini ding qildi.

Ertakdagi ajdarhoga o'xshagan bulut, dedi Xo'tik, vahimaliroq ohangga o'tib. Mallamosh deganlarning unga tirmashib olganidi. Hozir senga gapirayotganda ko'zi qanday yaltillagan bo'lsa, o'shandayam shunday yaltillab turuvdi.

Ajdarhoga o'xshagan bulut Ayozzoda-ku, hushyor tortdi Oqbars. Gaping rostmi? Adashmayapsanmi?

Ko'rganimni aytyapman-da, deb ko'zini gildiratdi Xo'tik.

Kezargon Boychechak Xo'tikning ustida turib, Oqbarsning gumonlariga loqayd munosabat bildirdi:

Yetarli dastaging bo'lmasa, birovni shoshib aybdor qilmagan yaxshi. Balki o'sha mushukning niyati buzuqroqdir, balki bizni ataylab botqoqqa boshlamoqchi bo'lgandir. Hamma ish o'tdi-ketdi, endi bizga hech kim to'g'anoq bo'lolmaydi. Buvim aytyapti-ku, buyog'i yaqin qoldi deb... Aytganday, qani o'zi o'sha Mallamosh?

Mallamosh bu paytda Ayozzodaning biri biridan qo'rqinchli jazolarni pesh qilib tutaqayotganidan vasvasaga tushgan kuyi qaltirab turardi.

Sendaqalarni oltiga bo'lib, oltita daryoga oqizvorish kerak, deb do'qni kuchaytirdi Ayozzoda. Anqov! Lalov! Xomsemiz! Shu osongina ishni eplolmay o'tiribsan-a. O'n la'nat, yuz la'nat, ming la'nat senga! Tezda chuqur kavla! Kavla dedim!

Chuqurni nima qilasiz? yelka qisib so'radi Mallamosh.

Ayozzoda ko'zini baqraytirdi:

Seni muzlatib shu chuqurga ko'maman-u, keyin ishim yurishadi.

Mallamoshning kapalagi uchib, o'z-o'zidan orqaga tisarildi. Jahondagi yalinchoq so'zlarning eng oliy navlarini ishlatib, Ayozzodaning ko'nglini eritishga urindi. Ayozzoda anchagacha bezrayib turdi, nihoyat sal yumshadi.

Oxirgi gaping menga boshqacha ta'sir qildi, dedi u. Shunday chiroyli zot meni o'ldirib xunuk ish qilmang, deb chinqirishing ichimni to'kvordi. Bo'пти, o'zingni oqlashingga imkon berib ko'ray. Bunisiniyam chalkashtirsang, aytnasimdan turib, o'zingga chuqur qaziyyer.

Bu safar Boychechakni yo'qotmasdan qo'ymayman, qasam ichayotgandek turib shang'illadi mushuk. O'lsam o'lamanki, uddalayman!

Ayozzoda birdan yuvvosh tortdi:

-Agar uddalasang, mukofotni shartta besh baravarga oshirib...

Kerakmas mukofot! deb baqirdi jonidan to'yib ketgan Mallamosh. Tinch qo'ysangiz, shu o'zi mukofot menga!

Bu yerdan unchalar uzoq bo'lmagan jarlikda chiyabo'rilar galasi yashardi. Shallaqi laqabli chiyabo'ri bu galaga boshliq edi. Bu ochofatlarning har biriga bittadan qo'tosni qiymalab bersang ham, to'ydim degan gapni eshitish amrimahol edi.

Ayozzoda Mallamoshga o'sha jarga borishni, galaboshini topib, shu atrofda bir necha tirik masalliq kimga yem bo'lishni bilmay, sandiroqlab yurganidan xabardor qilib qo'yishni topshirdi.

Gapirishga ulgur olmay qolsam-chi? ko'zlari ola-kula bo'lib savol berdi Mallamosh. Chiyabo'rilar meni ko'riboq, turgan joyimda taqsimlab olishsa-chi?

Uyog'iga men aralasholmayman, qo'rslanib javob qildi Ayozzoda. Peshanangdagi yoziqda nima bo'lsa, shuni ko'rasan.

Mallamosh yurishga oyog'i tortmay, jar sari imillab borarkan, o'zini o'zi koyishga tushdi.

Olamda o'g'itlar ko'p. Shularning ichida miyaga qoziqdek qoqib qo'yishga arziydigan bitta eng zo'ri bor: вѢѢBoshim omon bo'lsin desang, bo'lar-bo'lmasga uydan chiqma!вѢќ Buni qazidek-qazidek harflarda yozib, borliq uy, molxona, qo'ra, katak, in va uyalarga ilib tashlash kerak.

Oqbars uvillasa uvillab o'lmasmidi o'shanda. Issiq joydan chiqib borib, uni tergash shartmidi? Bormaganida, Ayozzodaga yo'liqmagan bo'lardi. Ayozzodaga yo'liqmasa, boshiga shuncha galaguldur tushmagan bo'lardi. Boshiga bu galaguldurlar tushmagan bo'lsa, hozir ichiga non to'g'ralgan qaymoqni mo'nda-mo'nda qilib yamlayotgan bo'lardi. Keyin, xamirdek yoyilib uxlardi.

Iye, nega uxlamas ekan? Oytug'di onaning ilma-teshik sandig'iga kim ham tegardi?

Oytug'di ona hanuz bir maromda odimlar, Eshakning: Meni minib olaqoling, degan taklifini muloyimlik bilan rad etib, hali bardamligini namoyishlayotgandek, qaddini g'oz tutib borardi.

Ular sayhonlikdan o'tib, keng yaylovga chiqishgan chog'da, qarshilarida burama shoxli ikkita polvon-polvon Qo'chqor paydo bo'ldi. Ikkovi bir-biriga quyib qo'ygandek o'xshab turar, bittasining bo'ychanligi-yu, ikkinchisining pakanaroq ekanligidagina farqlab olish mumkin edi. Pakana Qo'chqorning ustiga qizg'ish patli dimog'dor bir Xo'roz qo'nib olgandi.

Novcha Qo'chqor o'tib borayotganlarga qiziquvchanlik bilan boqib, qayoqqa ketishayotganini so'radi. Itning qisqa javobini eshitib, biz ham Navro'zoyni bir ko'rib qo'yishga chiqqan edik, deya sherigi bilan to'pdagilarga qo'shildi. Yo'l-yo'lakay hammalari o'zaro tanishib olishdi. Bular egizak Qo'chqorlar ekan. Xo'roz esa jo'jalikdan beri ulardan ajralmas ekan.

Ha, jo'jalikdayoq onadan ayrilib qolish og'ir qismat. Buni yengib o'tish uchun yo Xo'roz, yo xo'rozfe'l bo'lish kerak. Aks holda, yanchilib ketasan. Orqasi yo'qlarni yanchish, xo'rlash hisobiga kun ko'radiganlar son-sanoqsiz. Shumshayganlarni ezishga navbat poylab turishadi.

Yaqin qoldik degandingiz-ku, buvi, oldinga betoqat tikilib, yana injiqlandi Boychechak. Qizil chegaraga qachon yetamiz? Uyoqdagilar kechikmasmikin, ishqilib? Ularni ko'rmay qolsak-chi?

Oytug'di onaning o'rniga Xo'roz javob qildi:

Tashvishlanma, kezargon Boychechak. Kuntug'di otaning sharpasini birinchi bo'lib men sezaman. Qayoqdan kelayotganini hali ko'rmasimdanok bilaman. Bilganim zahoti, qichqirib jar solaman.

Unda, juda kerakli Xo'roz ekansan, deb yengil tortdi Boychechak. Iltimos, yaqinrog'imda yuringin.

Xo'rozni ortmoqlab kelayotgan pakana Qo'chqor bu gapni eshitib, Xo'tikka biqin tirkadi-da, uni minib borayotgan kezargon Boychechakka qarab samimiy jilmaydi. Xo'roz oldinga tiyrak nazar tashlaganicha, qo'mondonlardek gerdayib turardi.

Jar hukmdori

Boshqa hayvonlar qishni yoqtirishmaydi xolos, chiyabo'rilar esa o'lgudek yomon ko'rishadi. Qish ochlikning eng avjga mingan davri, chiyabo'rilar maxluqlarning eng yebto'ymasi. Qishni o'ylasang, ovchi istarali ko'rinadi, degan maqol bor ularda.

Jarni o'ziga boshkent qilib olgan chiyabo'rilar galasi ochlikdan tamoman qirilish arafasida turgandi. Ba'zilari o'lib bo'lgandi ham.

Ularni yaqin qarindoshlari, qardron o'rtoqlari talashib yeyishdi. Bundaylardan biri: Yarim oy tuz totmasang, hatto o'z otang ko'zingga ovqat bo'lib ko'rina boshlar ekan, deganida, yonidagilarning hech qaysisi taajjublanmadi.

Ana endi, shu kayfiyatdagi galaning ichiga etlari tirsillagan to'lpoq mushukning so'lqillab kirib kelishini tasavvur qiling. Salom berishga ulgurarmikin boyoqish?

Buni yaxshi anglagan Mallamosh o'ngardan jarga tushayotgan mahaldan boshlaboq: Shallaqiga gapim bor! Shallaqiga gapim bor! degan jumlaning tinimsiz qaytariqlashga tutindi. Qovjiroq butalar orasidagi qimtiq yo'lakdan borarkan, har qadamda yon-veriga yuragi po'klaganicha jalanglab qo'yardi.

Yaxshiyamki, mushukning tovushi o'tkir edi, butalar orasidagi pichan to'shamada yonboshlab yotgan galaboshi uning nag'masini birinchilar qatorida eshitdi. Eshitdi-yu, qornini silab turib: вЂњKatta ashula aytib kelayotgan hofizga hech kim tegmasin!вЂќ deb buyurdi.

Qimirlab-qimirlab qo'yayotgan butalar orasida allaqanday sharpalar g'imirlab yurganini his etgan Mallamosh: Shallaqida gapim bor-ov! deb yanada balandroq shovqin solishga tushdi. Oxiri, sertikan yo'lak tugab, pichanga yonboshlagan asno unga ko'zini pildiratib turgan so'yloq Chiyabo'riga ro'para keldi.

Shallaqiga gapim bor, bu safar past tovushda ming'illadi Mallamosh.

Galaboshi qaddini rostlab, oldingi oyoqlariga tayanib o'tirdi. Maynabozlikka moyil ovozdagi shoshib-shoshib so'zlay boshladi:

Shallaqi deganlari menman. Qani-qani-qani, beriroq kel-chi. Qo'rqma, to'lpog'im, kelaqol, kelaqol. Qani-qani-qani, yanayam yaqinroq kel. Yanayam, yanayam, yanayam, qani-qani-qani...

Mallamosh qalt-qalt titrab yaqinlashgach, Shallaqi bir chang solishda uning tomog'idan bo'g'izlab, oyog'ini yerdan uzdi. Mushuk pala-partish pitirlab, vag'illay ketdi.

Shallaqi og'zidan so'lak sachratib chiyilladi:

Potir-puturni yig'ishtir! Vag'illashni to'xtatmasang, dumingni yulib tomog'ingga tiqib qo'yaman!

Tomog'imga tegmang, deb xirqiradi Mallamosh, sizga gapim bor.

Gaplashamiz, dedi Shallaqi. Faqat, o'sha gaplaringni qornimda yoti-i-b, bemalol aytarsan. Hozir ochman, eshitish qobiliyatim sust.

Shallaqining o'ng yonida o'tirgan Chiyabo'ri tamshanib turib: вЂњHarqalay, birinchi o'rinbosaringizman. Oyoqlarini menga berasiz-a, xo'jayin вЂќ, desa, chap yonidagisi: вЂњIkkinchi o'rinbosarga, hech bo'lmasa, ikkita qulog'i tegib qolar вЂќ, deb lab yaladi.

Tekin ovqat bor! yirtqichlarni irdashga kirishdi Mallamosh. Aytmasimdan o'ldirib qo'ymanlgar!

Shallaqi changalidagi mushukni tap etkazib yerga tashladi:

Qanaqa tekin ovqat? Qani-qani-qani, tezroq gapir-chi.

Bir to'p sang'ilar yaylov tomonga ketishyapti, dedi Mallamosh. Bari semiz-semiz.

Semiziniyam yeymiz, orig'iniyam. Qani-qani-qani, yana nima demoqchisan?

Ularning ichida Boychechak degan sehrli gul bor, ustamonlik bilan gap to'qidi Mallamosh. Kim uni yesa, ustiga tog' ag'darilsayam o'lmaydigan bo'ladi.

Shallaqi: вЂњVo! Gapni shundan boshlamaysanmi! вЂќ deb qo'ygach, o'rnidan turib, tirnog'ida yerni tataladi:

Qana-qani-qani, bizni zipillab o'sha yoqqa boshla-chi. Qornimiz tuzukroq to'ysa, seni yemasdan turamiz. Qani-qani-qani...

Ular oldinga qo'zg'alishi bilanoq, har bir buta ortidan ikki-uchtadan Chiyabo'ri chiqib kelib, to'daga tirkashaverdi. Galadagilar juda ko'pchilik ekanligini ko'rib, Mallamoshning yuragi orqaga tortdi.

Bular to'yishi qiyin. Baribir meniyam tirik qoldirishmaydi. Aslida, Ayozzoda tiqilinchni boshlagandayoq, to'g'ri Kuntug'di otaning Ko'ksaroyiga qarab qochishim kerak ekan. Xotinlardan muruvvat ko'rsan xolos, erkakning yonida bo'lish bexavotir.

Ammo, shu topda Kuntug'di otaning o'zi ham qattiq xavotirda edi. O'jar Ko'rkalamush hassasini tikirlatib, ularni nuqul o'ydim-chuqur yerlardan yetaklab borar, o'ngroqda tekis so'qmoq turibdi, degan gapga quloq solgisi kelmasdi. Kuntug'di otaga-ku bunaqa joylarda yurish unchalar mushkul emasdi, biroq karaxtlikda odimlayotgan Navro'zoyni tez-tez qoqinib turishidan bir

tashvishlansa, dovdur yo'lboshchining o'zi bironta o'pqonga yiqilib lat yeyishidan ikki tashvishlanayotgan edi.

Kuntug'di otaning nihoyat sabr kosasi to'ldi. Bu qo'lida Navro'zoyni tutib, u qo'lida Ko'rkalamushni yetaklab, tekislikka chiqib bordi-da, вЂњMana endi, qiynalmasdan karvonboshilik qilavering, taqsiрвЂќ, deb miyig'ida jilmaydi.

Ko'rkalamush tekis so'qmoqdan ravon o'rmlayotib, odatdagi bidir-bidirini boshladi:

Oytug'di ona opangizmi, yo singil bo'ladimi, otaxon?

Opam bo'ladilar, dedi Kuntug'di ota.

Shundan keyin, Ko'rkalamush to'xtovsiz javranishga tushdi:

Oytug'di onani qarshilashga borayotganingizni eshitiboq, toza xursand bo'pketganidim. Opani izzat qilgan sirayam kam bo'lmaydi. Aka bilan uka erkak, opa bilan singil ayol. Erkak ziyofatga o'ch, ayol mehribonlikka tashna. Yaxshiyam, sizga o'xshaganlar bor. Bu odatingizni ko'rib, yalay-malaydan boshqani bilmay borayotgan yoshlar zora o'rnak olishsa. Iye, vey, to'xta-chi, Kuntug'di ota shu yoshidayam erinmay opasidan xabar opturadi-yu, biz o'shanchalik bo'lolmaymizmi, undan nimamiz kam, deb o'ylashsa, ajabmas-da. Ukalari oqibatli chiqqanidan ko'ngli ko'pgan opalar bilishmaydiki, bu ishning orqasida Kuntug'di ota turibdi. Bilishsa, kunu tun duo qilishmasmidi? Biroq, menimcha, asosiy gap bunda emas. Muhimi, yaxshi axloqni boshqalarga ko'rsatib qo'yib, shunaqalar ko'payib boryotganidan bir chetda quvoni-i-b o'tirishda. Labbay deb qo'ydik, Kuntug'di ota?

To'ppa-to'g'ri gapiryapsiz, taqsiр, deb ma'qulladi Kuntug'di ota. Yaxshi xislatning qadriga yaxshilar yetadi.

Ux-ux-ux, zap topib aytdingiz-da! hayajonlanib ketdi Ko'rkalamush. So'zingiz nihoyatda o'rniga tushdi. Vaholanki, mashoyixlar...

Hassaning uchi qayoqdandir shamolda uchib kelib shu joyga qo'ngan, so'qmoqda eshilib-buralganicha po'mpayib turgan yirtiq po'stakka urilib, Ko'rkalamushning gapi bo'lindi.

Chip! deya po'pisa qildi u. Chip dedim senga! Chip-e!

Kuntug'di ota o'zicha bosh tebratib qo'ydi:

Taqsiр, oldingizda turgan narsa eski po'stak.

Shunaqa-da, ba'zan qarichilik qipqo'yamiz-da, deb qiqirladi Ko'rkalamush. Po'stakni itdan ajratolmaydigan yoshga yetganimizga shukur. Tengdoshlarimdan qancha-qanchasi ayni qirchillagan chog'ida o'tib ketdi. Ularni o'ylasam, jigarim teshilgudek bo'lib, hayhot devorganimni bilmay qolaman.

Ko'rkalamush, javrana-javrana po'stakni aylanib o'tib, yo'lboshchilik qilishda davom etdi. Kuntug'di ota: вЂњShu qaqildoq taqsiрning yo'liqqaniyam bir hisobda yomon bo'lmadi, hali uyoqdan, hali buyoqdan gapirib, meni zeriktirmay kelyapti-kubвЂќ, deb xayolidan o'tkazdi.

Uchrashuv

Yuraverishdi, yuraverishdi, yaylov pastqamgina bir o'rkachga borib taqaldi.

Qizil chegara ana shu o'rkachning ustidan o'tadi, dedi Oytug'di ona. Yana ozgina yursak, pakkaga yetamiz. Uyoqdan Kuntug'di ota bilan Navro'zoy chiqib kelishadi. Hozir yaqinlab qolishgandir.

Oytug'di onaning ortidan hammalari tepaga o'rlay boshlashdi. Buni yantoqning yaydoq novdalari orasidan kuzatib turgan Ayozzoda: вЂњQayoqlarda yuribsan, maxov mushuk?!вЂќ deb yer mushtladi. Nima bo'lsa bo'lar, endi jang qilmay ilojim yo'q, deya o'rnidan qo'zg'alayotganida, chiyilloq tovushlar eshitilib, shoshib yonga o'girildi. Chiyabo'rilar galasi Mallamosh bilan birga shu tomonga yopirilib kelayotgandi. Shodlikdan Ayozzodaning nafasi bo'g'ziga tiqilayozdi:

Obbo battol-ey, oxiri uddalabdi-da? Ish degani mana mundoq bo'pti! Yashshavor, mushuk! O'n ofarin, yuz ofarin, ming ofarin! Chiyabo'rilar uchqurlab kelib, Oytug'di ona boshlab borayotgan to'dani iskanjaga olganida, ular tun bilan kunning qizil chegarasiga yetay deb qolishgan edi.

Shallaqi oldinroqqa chiqib, turganlarga muttahamlarcha shang'illadi:

Bizga tegishli yaylovda nega lo'langlab yurishibsan, bosqinchilar? Birovlarning yeriga ko'z olaytirish jonni qimorga tikish degani. Jon ortiqchalik qildimi?

Qorni to'q kelgindilarga o'lim! deb qiyqirdi Shallaqining birinchi o'rinbosari.

Shallaqi darhol aniq maqsadga ko'chdi:

Qisqasi, siz dushmanlarni bitta qo'ymay yeyishga majburmiz! Qani-qani-qani, og'zimizga yaqinroq kelinglar-chi...

Chetroqdagi Chiyabo'ringing panasidan pismayib boqayotgan mushukka bexos ko'zi tushgan Oytug'di ona, Shallaqining do'qini e'tiborsiz qoldirib: вЂњHoy, Mallamoshmisan? Bu o'lat tekkurlarning orasida nima qilib yuribsan?вЂќ deya hang-mang bo'lib so'radi. Mallamosh tisarilib, o'zini yanada panaga olmoqchi edi, Shallaqining ikkinchi o'rinbosari uni bir tepib oldinga chiqardi:

O'lishlaridan oldin senga savol berishyapti. Javobingni eshitib qolishsin.

Mallamosh indamasdan pildirpislanib turaverdi.

Bu chakkibosar baroq Ayozzodaga sotilib ketganini allaqachon fahmlagan edik, dedi Oqbars. Sizga aytishdan tortinuvdik, Oytug'di ona.

O'ladigan bo'lsam, eng oldin shu sotqinni tepalab o'laman, deb hangrab yubordi Eshak. Bunaqa josuslar millionta Chiyabo'ridan xavfliroq.

Mallamosh to'satdan jonlanib, Eshakka chaqchaydi:

Ko'p kuchayma! Bir yumdalashda ko'zingni oqizvormayin tag'in!

Shunaqayam jirkanch bo'lasanmi? mushukni g'ajib qo'ygudek bo'lib, tishlarini qirtillatdi Oqbars. Bizni chetga surib tur, Oytug'di onaning yuziga oyoq qo'yishga uyalmadingmi? Qaymoqlar berib boqardi-ya!

Kampirdan qarzim yo'q, deya tugalay surlandi Mallamosh. Sandig'ini qancha-qancha sichqondan qo'riqladim, yerto'lasidan qancha-qancha kalamushni haydadim. Mehnatlarimga yarasha ovqat yeganimni eslolmayman.

Nonko'r! Beyuz! Xoin! deb vovullay ketdi Oqbars. Baribir mendan qutulib bo'psan! Bitta men emas, butun bir avlodim butun bir avlodningni quvib o'tadi!

Ishtahasi karnay bo'lib, nafsi lakalumlanib turgan Shallaqining chidami tugab: вЂњBas!вЂќ deb o'shqirdi itga. So'ng, galaga yuzlandi:

Qashqirlarim! Novcha Qo'chqor bilan Boychechak meniki! Qolganini bemalol вЂњsen je, men jevвЂќ qilinglar!

Yeru ko'k chiyilloq tovushlardan larzaga keldi. Chiyabo'rilar bir-birini toptagudek bo'lib, o'ljalarga tashlanishdi.

Uyoqdagilar ham bo'sh kelishmadi. Ota-bola Eshaklar uchragan dushmani tepib uchririshga, egizak Qo'chqorlar burama

shoxlarini xanjardek sanchishga, pahlavon Oqbars tishiga ilinganni chirpiratib uloqtirishga tushdi. Xo'roz goh irg'ishlab turib, вЂњaykidov Ёќ usulida tepar, goh yog'i tugagan uchoqdek balanddan sho'ng'ib kelib, chiyabo'rilarning ko'ziga chang solar, miyasini cho'qib, tentiraklatib qo'yardi.

Bu shovqin-suron o'rkachning narigi tarafidagilarga ham eshilib, Kuntug'di ota hushyor tortdi. Ko'rkalamush qulog'ini picha ding qilib turgach: вЂњMen aralashmasam bo'lmaydigan yirik g'alva chiqqanga o'xshaydiвЂќ, deb, hassasini tez-tez tikillatganicha, tepalik sari jadal yo'rg'aladi.

Kuntug'di ota shoshilolmasdi. Imillab odimlayotgan Navro'zoyni o'rkachga o'zi bilan birga olib chiqishi kerak edi.

Buyoqda chiyabo'rilar tutdek to'kilib borayotgani, uyoqda Kuntug'di otaning lovullab ko'rinishiga oz muddat qolayotgani Ayozzodani talvasaga soldi. Jangda Shallaqining o'zi ham Eshakning tepkisidan sulayib qolgach, chiyabo'rilarning ruhi tushib, ayrimlari qocha boshlaganini ko'rgandan keyin, chidab turlmay, askarlarini oldinga yetakladi. Jang maydonining ustini qoramtir tutunchalar qoplab, pastdagilarga sovuq havo purkay ketishdi.

Izg'irin soniya sayin zo'rayib bordi. Ikkala tomondagilar ham qunishib-qunishib harakatlanayotgan edi. Zum o'tmay, jangohdagilarning barchasi qirov bosgan haykallarga aylanib qoladigandek tuyuldi. Oytug'di ona bo'ynidagi tumorni yoqib, ko'zlarini qamashtirgandan keyingina, tutunchalarning shashti keskin susaydi.

Boychechak Xo'tikning yoliga nechog'li mahkam tirmashib olgan bo'lmasin, to'xtovsiz shataloq otishlarning birida qaltisroq siltanib ketib, yerga uchib tushdi. Hamma ur-yiqit bilan o'voraliqi bois, kezargon Boychechak himoyasiz qoldi.

Jangga kirganidan beri asosan Xo'tik bilan olishayotgan Ayozzoda nochor ahvoldagi Boychechakning ustiga kelib, dumini kulchalab yig'di-da, tinimsiz вЂњpuf-pufвЂќlashga tutindi. Endiyam muzlamay ko'r-chi, deb g'alaba gashtini surayotganida, hilviroq yaproqchalariga burkanib olgan Boychechakning yonida qandaydir Ko'rkalamush paydo bo'ldi. Keliboq, Boychechakni yerdan ko'tarib, bag'riga bosdi, uni sovuqdan panalab, g'ujanaklanib oldi.

Ko'rkalamushga ancha-muncha sovuq pisand emasligini yaxshi bilgan Ayozzoda, nima qilishini bilmay, yon-veriga alangladi. Tala-to'palangda o'ralashib yurgan mushukni ko'rib, jig'-biyroni chiqib chaqirdi:

Mallamosh! Mallamosh deymen! Buyoqqa kel! G'aji anavi Ko'rkalamushni! Keyin, Boychechakni majaqla! Tuproqqa qorishtirvor! Buni men o'zingni o'ldirishim mumkin bo'lgan Ayozzoda aytyapman!

Mallamosh Ayozzoda ko'rsatgan tomonga otili. Goh Eshakning tuyog'iga, goh Qo'chqorning shoxiga chap berib o'tib, Ko'rkalamushga yaqinlashdi. Ustiga tashlanishga shaylangan mahali, hech kutilmaganda, Ko'rkalamush chap qo'lidagi hassani qilichdek selpib, mushukning qoq kallasiga qarsillatib tushirdi.

вЂњQars!вЂќ etishi bilan, Mallamoshning ko'zidan charsillab o't chaq nab, gansiraklab qoldi. O'zini o'nglashga tirishayotganida, selpilgan hassa ikkinchi marta peshanasiga kelib urildi-yu, shilqillab yiqildi, qaytib qimirlamadi.

So'qishuvda Shallaqining ikkala o'rinbosari ham halok bo'lganidan keyin, chiyabo'rilar tugalay tahlikaga tushib, tirqirab qocha boshlashdi. Qochoqlardan biri yerda tuproqqa belanib yotgan mushukni chaqqonlik bilan tumshug'iga qistirib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Jang maydoni bo'shab, shovqinlar tindi. Ayozzoda yengilganini nihoyat tan oldi, tutunsimon askarlarini ergashtirib, u ham qorasini o'chirdi.

Birovining u yer-bu yeri shilingan, birovi oqsab-to'qsab qolgan bo'lsa-da, barcha sheriklari sog'-salomatligini ko'rib, Oytug'di onaning ko'ngli yorishdi. Jang qilganlar qatorida kezargon Boychechakni ko'ksiga bosib olgan Ko'rkalamush ham turganligi uni hayratga solib: вЂњSiz qayoqdan kepqoldingiz, muhtaram Ko'rkalamush?вЂќ deb so'radi.

Meni bu olatasirga taqdirning o'zi yuborgan bo'lsa, mutlaqo ajablanmayman, dedi Ko'rkalamush, kiborlarcha dimog'lanib. Boychechak: вЂњMeni shu zot asrab qoldiвЂќ, deya, bo'lgan ishlarni ipidan ignasigacha so'zlab berdi. Ko'zi ojiz bir jonivor shunday qila olishi mumkinligiga Oqbarsning ishongisi kelmay: вЂњSira aqlim yetmayapti, qori og'a, Boychechakni qanaqasiga topib bordingiz-u, qanday qilib mushukning hujumini qaytardingiz?вЂќ deb savol berdi.

Ko'rkalamush viqor bilan qosh kerdi:

Yaratguvchi bizni ko'zdan qisgan bo'lsayam, boshqalarnikidan ko'proq sezgi bergan. Hid bilan sharpani sezishda oliyzot Ko'rkalamushlarga teng keladigani kam. Boychechakni isidan sezib topdim, mushukning sharpasini mo'ljalga olib, boshini yanchdim.

Ko'rkalamush so'zini tugatib-tugatmasidan, Xo'roz zo'r berib qichqirishga tushdi:

Quq ququ qu-u-u! Qip-qizil quyosh-u-u!

Xo'roz qichqirdi! Xo'roz qichqirdi! deb irg'ishladi Boychechak. Xo'roz Kuntug'di otaning sharpasini birinchi bo'lib sezaman degan edi.

Oytug'di ona: вЂњQani, yuringlar endiвЂќ, deb yo'l boshladi. Buyoqdagilar o'rkachning tepasiga tayinli muddatdan biron soniya kechikmay yetib borishgan zahoti, uyoqdan Kuntug'di ota bilan Navro'zoy ham chiqib kelib, tun bilan kunning qizil chegarasi uzra uchrashishdi. Oytug'di ona kezargon Boychechakni Oqbarsning ustidan olib, Navro'zoyni oldiga qo'ydi.

Uyg'on, Navro'zoy, dedi Boychechak. Men keldim. Boychechakman!

Dimog'iga yoqimli hid urilgan ondayoq, Navro'zoy shirin uyqudan bosh ko'targandek bo'lib, ko'zini beozorgina ochdi, uzun kipriklarini tezgir pipiratib qo'yib, Boychechakka tikildi. Nigohida sevinch shu'lasi charx urayotganini, tong otib qolgani bois, atrof dagilarning bari aniq-tiniq ko'rib turishardi.

Bu senmisan, Boychechak? entikib pichirladi Navro'zoy. Seni shunaqayam ko'rgim kelgan ediki!

Uning tovushi rayhon yaproqlarining yel esayotgandagi shivirlog'ini eslatardi. Ajabboki, borliqning birdan jonlanishi uchun shu shivirloqning o'zi kifoya edi.

Kuntug'di ota sog'inch to'la ko'zlarini porpiratib, Oytug'di onaga yaqin keldi, manglayidan cho'lpillatib o'pdi.

вЂњCho'lpвЂќ etgan bu tovushni eshitib, Ko'rkalamush tuyqus sergaklandi.

Bilaman, tushunib turibman, deya tamtamlanib gap boshladi u. Boychechak bilan Navro'zoy bir-birini juda sog'ingan. Ammo... lekin... biroq... ko'pchilikning ichida o'pishish bizdagi tutumgayam, udumgayam to'g'ri kelmaydi. Yosh-yalanglar ko'rib qolsa, shunaqa qilsa bo'laverarkan-da deb...

Ko'rkalamush so'zini tugatolmadi. Tevarakda turganlar, go'yo ilgaritdan maslahatlashib olgandek, tengdan kulib yuborishdi.

Ulkan shodiyona yaxshilik va yaratuvchanlik yo'lida qo'rquvsiz kurashganlarning ko'nglidan barcha azob-uqubatlar cho'kindisini yuvib o'tuvchi toshqin kulgi bilan boshlandi. Bayram avjiga mindi-yu, har bir qoqvosh bola qachonlardir uchrashmoqni ich-ichi qaynoqlanib orzulaydigan kezargon Boychechak to'g'risidagi qissa, eski rivoyatda qanday bashorat qilingan bo'lsa, xuddi

This is not registered version of TotalDocConverter
o'shaqchi.net/uz/2018/09/09/

Toshkent, 2009